

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI**

**Buxoro Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti**

**Ekologiya ta'lim yo'nalishi**

**Murodov Dadajon Ozodovich**

**Mavzu: "O'zbekistonda mineral resurslardan oqilona foydalanish  
va atrof-muhit muhofazasi"**

**5630100-ekologiya va atrof – muhit muhofazasi bo'yicha bakalavr  
kvalifikastiyasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**BMI kafedraning (№10 sonli iyun 2017yil) qarori bilan himoyaga tavsiya  
etilgan**

**Kafedra mudiri, prof:**

**A.E. Xolliev**

**Fakultet dekani, dots:**

**X.T.Artikova**

**Ilmiy rahbar:**

**F.A.Nazarova**

**Buxoro-2017**

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. O`ZBEKISTONDA MINERAL RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA YER OSTI BOYLIKLARINI MUHOFAZA QILISH</b>	
1.1. Mineral xom-ashyo resurslarining tasnifi hamda iqtisodiy o`shish va rivojlanish omili tavsifi.....	6
1.2. O`zbekiston Respublikasi mineral xom - ashyo bazasi.....	8
1.3. Mineral xom – ashyo resurslarining umumiy holati va ulardan foydalanish.....	16
<b>II BOB. MINERAL RESURLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA ATROF – MUHIT MUHOFAZASI</b>	
2.1. Mineral resurslardan majmualiy foydalanish.....	30
2.2. Foydali qazilmalarni qazib olishda atrof-muhitning ifloslanishi va uni muhofaza qilish.....	32
<b>III BOB. UMUM TARQALGAN FOYDALI QAZILMALARNI MUHOFAZA QILISH VA OQILONA FOYDALANISH USTIDAN DAVLAT NAZORATI</b>	
3.1. Mineral resurslarni muhofaza qilishda davlat boshqaruvi.....	37
3.2. Yer osti boyliklari va ularni muhofaza qilish huquqiy holati tushunchasi.....	44
3.3. Mineral resurslardan foydalanish huquqi va ularni muhofazalashning ekologik – huquqiy talablari.....	47
3.4. Yer osti boyliklarini muhofaza qilish, huquqbuzarlik bartaraf etish choralari.....	49
<b>XULOSA</b> .....	53
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI</b> .....	55
<b>ILOVALAR</b> .....	57

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va modernizatsiyalashuvi sharoitida, jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining, xususan, mineral xom-ashyo resurslarini qazib olish, qayta ishlash, ularning samaradorligini oshirish orqali mamlakatdagi makroiqtisodiy muvozanatni hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Buni e'tiborga olgan holda jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozini bartaraf etishda sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning ustuvor vazifalarini aniqlash bugungi kundagi muammolarni tarkibiy islohotlar bilan bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, "Asosiy vazifa – ishlab chiqarilayotgan va qazib olinayotgan xom ashyoni kompleks qayta ishlashda, aytish mumkin-ki, chiqindisiz qayta ishlashda, respublikaning o'zida uni tayyor mahsulotga aylantirishdir. Boshqacha aytganda, respublikada zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan qudratli qayta ishlash sanoatini bunyod etish va shunday qilib, uzluksiz o'sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash, respublika milliy daromadining yuqori sur'atlarda o'sishiga erishish hamda mamlakatimizdagi har jihatdan uyg'un rivojlangan respublikalar darajasiga yetib olishdir. Agar respublikalararo yalpi tovar ayirboshlashda respublikamizga tovarlar, umuman sanoat mahsuloti olib kelish shunday tovarlarni chiqarishdan qariyb 4 milliard so'm ko'pligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu muammoni butunlay va iloji boricha tezroq hal etishimiz kerak".

Mineral resurslar o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslardan o'zining qayta tiklanish xususiyatlariga ega emasligibilan ajralib turadi va tugaydigan tabiiy resurslarga kiradi. Insonlar qadim zamonlardan boshlab yer ostidan kerakli qazilmalarni qazib olib foydalanib kelganlar. Mineral xom-

ashyo resurslar deb, yer qa'ridan qazib olinadigan qora, rangli va nodir metall ma'danlari, turli xil yonuvchi resurslar, kimyoviy xom ashyolar, qurilish materiallariga aytiladi.

Hozirgi kunga kelib insoniyat foydalanadigan mineral va tog' jinslarining umumiy soni 3500 dan ortib ketdi va har yili 120 milliard tonnadan ortiq foydali qazilmalar va turli tog' jinslari ishlatilmoqda.

Mineral resurslari mehnat predmeti sifatida tovarlar ishlab chiqarishda foydalaniladi, ishlab chiqarishni rivojlantirishning moddiy asosi va faol unsuri bo'lib xizmat qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti, mehnat vositalarini takomillashtirish bilan mineral resurslarning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirishning muhim omili sifatida ahamiyati oshib boradi.

Mineral xom ashyo resurslari iqtisodiy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi, u mamlakat iqtisodiy qudratining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda mineral xom-ashyo salohiyatidan foydalanish muammolarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida O'zbekistonda mineral xom-ashyo salohiyatidan foydalanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- turli iqtisodiy qarashlarni o'rganish va umumlashtirish asosida mineral xom-ashyo resurslarining tasniflash va iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatib berish;
- mineral xom-ashyo resurslari iqtisodiy rivojlanish omili sifatidagi ahamiyatini ko'rsatib berish;
- O'zbekiston bo'yicha mineral xom-ashyo salohiyati dinamikasini ko'rsatish;
- O'zbekistonda mineral xom-ashyolarni ishlab chiqarish va eksport hajmi o'zgarish dinamikasini aniqlash;

- Mineral xom-ashyo resurslarini qayta ishlash va chuqur qayta ishlash darajasini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy asoslangan xulosa va jamlanma materiallardan o'quv jarayonida, kurs ishi, referat, ma'ruza, tezis va tarqatma materiallar tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat holda yoritib berilgan. Bitiruv malakaviy ishida 20 dan ortiq adabiyotlardan foydalanilgan bo'lib, 3 ta jadval va 1 ta rasm keltirilgan. Ishning asosiy hajmi 58 betni tashkil etadi.

# **I BOB. O`ZBEKISTONDA MINERAL XOM – ASHYO RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA YER OSTI BOYLIKLARINI MUHOFAZA QILISH.**

## **1.1 Mineral xom - ashyo resurslarining tasnifi**

Mineral xom - ashyo resurslari jonsiz tabiat resurslari bo'lib, ulardan konstruksiya materiallari, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar, har xil buyumlar, qurulish materiallari, asbob uskunalar, yoqilg'i kabi xalq xo'jaligida ishlatilayotgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi, yo'qolib ketmaydi va shu bilan birga o'zining xususiyatlarini ham o'zgartirmaydi. Geologik va xo'jalik modda aylanishida esa o'z shakllarini va joylarini o'zgartiradi. Litosfera va qisman gidrosfera mineral xom - ashyo resurslarini manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mineral xom-ashyo resurslari hududlar, rayonlarga joylashish chuqurligi bo'yicha notekis joylashgan va xom-ashyo tarkibi bo'yicha xilma-xil. Shu sababdan ulardan foydalanish samarasi ham har xil. Bunda yuqori sifatli resurslar cheklangan, ayniqsa hududlar bo'yicha, chunki ular tiklanmaydigan resurslarga kiradi. Shunga bog'liq holda resurslar tugashi va xom-ashyo yetishmasligi to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Haqiqatda esa bunday tasavvur shartli va faqat xom-ashyoni qazib olishning iqtisodiy sharoitlarini ifodalaydi. Amaliyotda mineral xom-ashyo resurslardan undagi xom-ashyoning turli tarkiblarida mavjudligi sharoitida foydalaniladi. Masalan, temir rudasi sof xom-ashyosi 80 foiz, oltin konlarida esa foizning kichik bir qismini sof oltinlar tashkil etadi. Bir xil xom-ashyoning tarkibi va sifatiga qo'yiladigan talablar ham hududlar bo'yicha ijtimoiy zarur harajatlarga bog'liq holda har xil bo'ladi.

Barcha mineral resurslarni bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tasniflash mumkin. Masalan, sanoat-tarmoq ishlatilishiga qarab bir qancha guruhlariga ajratish mumkin. Bular yoqilg'i energetika xom ashyosi, qora va rangli, nodir, kam uchraydigan metallarga, agrokimyoviy xom-ashyo, texnik va olovga bardosh xom-ashyo, qurilish mollar, qimmatbaho toshlar, suvosti suvi va mineral moddalar kabilarga.

Yoqilg'i energetika xom-ashyolariga neft, tabiiy gaz, qo'ng'ir va tosh ko'mirlar, yonuvchi slanets, uran va toriy kiradi. Bular ko'pchilik transport vositalari, atom elektr stansiyalarining asosiy energiya manbai hisoblanadi. Uran va toriydan tashqari barchasi kimyoviy sanoatda qo'llaniladi.

Jahon iqtisodiyotida eng asosiy o'rin tutuvchi mineral resurs qora metall hisoblanadi. Bu guruhga kiruvchi temir, temir rudalari zamonaviy mashina qurilishi va qurilishning asosini tashkil qiladi.

Rangli metallar guruhiga quyidagilar kiradi: mis, rux, alyuminiy, titan, xrom, nikel, kobalt, magniy, qalay. Mis ikkinchi eng asosiy metall hisoblanadi. Uni asosan elektr simlar tayyorlashda qo'llaniladi. Undan tashqari benzin sifatini yaxshilashda ham keng ishlatiladi.

Asl metallar orasida asosiy o'rin tutuvchi metallar bu – platina, oltin, kumush; kamroq o'rin tutuvchilar esa platina guruhiga kiruvchi metallar (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy). Bu metall o'zining chiroyli tashqi ko'rinishi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham ular asl metallar deb guruhlanadi.

Noyob, kam uchraydigan metallar guruhiga ittriy, lantan va lantanoidlar (14 kimyoviy element oilasi) kiradi. Ittriy asosan radiotexnikada ishlatilsa, lantan esa optik oynalarda qo'llanilib, lazer material hisoblanadi.

Kimyo va agrokimyo xom ashyolari orasida eng asosiy o'rin tutuvchi xom ashyolar bu - oltingugurt, tuz, fosforit, apatit, shpatlardir. Oltingugurtdan oltingugurt kislotasi, tosh tuzidan tuzli kislota, tuzlarni olishadi. Texnik va olovga bardoshli xom ashyolarga grafit, pesokvarts, asbest, magnezit, slyuda, texnik olmos va loylar kiradi. Ko'p tog'dan olinadigan mineral xom-ashyolar qurilishda yoki qurilish mollari tayyorlashda ishlatiladi. Grafit baland haroratda erishish xususiyatiga ega bo'lgani uchun qurilishda ko'p ishlatiladi.

Qimmatbaho toshlar orasida olmos eng asosiysi hisoblanadi, chunki u tabiatdagi eng qattiq va shu bilan birga eng shaffof tosh hisoblanadi. Olmosdan keying eng qadrlanadigan toshlar yoqut, zumrad, feruzalardir.

## **1.2. O`zbekiston Respublikasi mineral xom - ashyo bazasi.**

Hukumatning qo`llab – quvvatlashi va geologlarning sa`y-harakatlari bilan mamlakatda O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining negiziga aylangan o`ziga xos mineral xom - ashyo bazasi yaratildi. Bugungi kunda O`zbekistonda 1800dan ortiq kon hamda taxminan 1000ga yaqin istiqbolli qazilma boyliklari hosil bo`lgan, 118 turdagi mineral xom-ashyo mavjud bo`lib, shundan 65 turi o`zlashtirilmoqda. 1500 dan ortiq kon razvedka qilindi, shu jumladan, 188 ta neft, gaz va kondensat; 48 ta nodir metall, 43 ta rangli, noyob va radioaktiv metall; 5 ta qora metall; 3 ta ko`mir; 37 ta tog`-kon rudasi, 22 ta tog`-kon kimyo va 30 ta rangdor tosh xom-ashyosi; 525 ta turli xildagi qurilish materiallari hamda 357 ta chuchuk va mineral yer osti suvlari manbalari mavjud. Razvedka qilingan konlarning 40 foizidan ortig`I o`zlashtirishga jalb qilingan.

Respublikada 400 dan ortiq ruda, shaxta, kar`yer va neft - gaz sanoati va boshqa korxonalar, 450 ta atrofida suv chiqarish korxonalari, bal`neologik shifoxona va kasalxonalar, shifobaxsh va shifobaxsh-iste`mol suvlarini quyish sexlari va zavodlari faoliyat yuritadi. Nodir, rangli metallar, uran va noyob elementlar rudalarini qazib olish bo`yicha respublikadagi yetakchi korxonalar – Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari sanaladi. Ishlab chiqarishga tayyorlangan mineral xom-ashyo zahiralari hatto ish quvvatlari oshirilgan taqdirda ham mavjud komplekslarni uzoq muddatlarga ish bilan ta`minlash imkonini beradi. Razvedka qilingan konlarning aksariyat qismi rudalarni boyitishning nisbatan oddiy texnologiyasini qo`llagan holda ochiq usulda ishlanishi va jahon bozorida yuksak talabga ega bo`lgan foydali komponentlari ko`p darajada ajratib olinishi imkonini beradi. Nodir, rangli va boshqa metallar rudalarida qo`shimcha komponentlar sifatida konlar qimmatini ancha oshiradigan noyob va kam uchraydigan elementlar katta zahiralari jamlangan.

Oltinning tasdiqlangan zahiralari bo`yicha respublika dunyoda birinchi beshtalikka kiradi, qazib olish darajasi bo`yicha esa to`qqizinchi o`rinni egallaydi. Uchta tog`-kon iqtisodiy hududi – Qizilqum (Muruntog`, Mutenboy, Triada,



Basapantog', Amaytaytog', Kokpatas, Dougiztog' va boshqalar), Nurota (Zarmiton, Gujumsoy, Sarmish, Biran, Marjonbuloq va boshqalar) va Toshkent bo'yi (Kochbuloq, Qayrag'och, Qizilolmasoy, Kauldi, Pirmirob, Guzaksoy va boshqalar)da joylashgan tub konlar asosiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning kelajakdagi istiqbollari – razvedka qilingan konlar bilan cheklanmaydi – respublikaning bashorat qilingan resurslari razvedka qilingan zahiralardan ikki baravar ko'proqdir. Tarmoqning oltin izlashga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlari hajmining (60 foizdan ko'proq) oshirilishi uning zahiralari kamayish-o'sish sur'atlarini to'xtatish imkonini berdi. 2000 yildan boshlab ular o'sib bordi va hozir qazish darajasiga yetkazildi.

O'zbekistonda bashorat – qidiruv va geologiya razvedka ishlarini 2015 yildan boshlab, oltin zahiralari o'sishini ta'minlaydigan 40 ta yangi istiqbolli maydonlarni o'rganish hisobiga kengaytirish mo'ljallangan. Butun dunyoga mashhur Muruntog' shtokverk oltin-kvartskoni Yevroosiyo materigidagi eng yirik kon hisoblanadi. Muruntog' kar'yeri ulkan ob'yekt bo'lib, unda O'zbekiston oltinining qariyb 80 foizi qazib olinadi. Kar'yer ishlagan yillar davomida bu yerda 300 mln. tonnadan ortiq tarkibida me'yorda oltin bo'lgan minerallashtirilgan massa hosil bo'lib, u so'nggi 10 yil davomida zich ishqorli yuvish orqali qayta ishlandi. Xuddi shunday yana bir kompleks Markaziy Qizilqumdagi Kokpatas koni negizida ishlamoqda, bu yerda 40 tonnadan ortiq oltin ishlab chiqildi. Markaziy Qizilqumdagi Daugiztog' va Amantaytog' oltin-sul'fid konlarining tasdiqlangan oltin zahirasi 300 tonnaga yetadi. «Amantaytog'Goldfields» QK har yili 4 tonnagacha oltin ishlab chiqaradi. Navoiy viloyatida Ajibugut nurash qatlamida noan'anaviy turdagi oltin ruda koni razvedka qilindi va ochildi. Sanoat oltin koni 20 dan 75 m gacha chuqurlikda oksidlash hududida joylashgan. Ob'yekt zahiralari o'nlab tonna oltinni o'z ichiga olgan. Zarmitan, Gujumsoy va yangi ob'yekt–xuddi o'sha ruda maydoni oltin-kvarts konlari, shuningdek Qizilolmasoy va Kochbuloq oltin-sul'fid-kvarts konlari istiqbollari ko'paymoqda. So'nggi yillarda

Qizilqumda zahiralari o`nlab tonnani tashkil qiladigan Bulutkon, Balpantog', Aristantog', Turboykonlari aniqlandi va o`rganilmoqda.

Respublika hududida kumush zahirasi 26 ta konda hisobga olindi. Zahiraning asosiy miqdori (80,4 foizi) Qalmaqir va Dal'nee (32,9%), Uchquloch (8,6%), Xondiza (12,2%) kompleks konlari, Kochbuloq (3,3%), Qizilolmasoy (5,3%), Muruntog' oltin ruda konlari va boshqa ob`yektlar (18,2%) hamda Visokovol'tnoe (11,5%), Kosmanachi (6,1%), Okjetpes (2%) bevosita kumush konlariga to`g`ri keladi. Uran zahirasi va qazib olinishi bo`yicha O`zbekiston dunyoning yetakchi o`nligiga kiradi. O`zlashtirilgan zahiralarni qayta ishlash samarali ekologik yer ostini ishqorli yuvish usulida amalga oshiriladi. Uran bilan qo`shimcha ravishda reniy, skandiy, selen, noyob yer elementlari qazib olinishi mumkin. Umumiy miqdori 100 ming tonnaga yetgan uranning tayyorlangan zahirasi va katta istiqbollar, shuningdek qo`llanilayotgan ilg`or texnologiyalar kon-metallurgiya kompleksi ishini kamida 20 yillik ish bilan ta`minlaydi. Respublikada rangli, noyob va tarqoq metallar yirik bazasi tashkil qilindi, bular bevosita va kompleks konlarni qamrab oladi. Misning katta zahiralari (17mln. tonnadan ortiq) Olmaliq kon-ruda kompleksi mis-porfirsimon konlarida jamlangan. 50 yildan ortiq davrda yer ostidan barcha zahiralarning atigi 20% ga yaqini qazib olingan. Faoliyat yuritayotgan kar`yer, ishlab chiqarish quvvati yiliga 30 mln.tonna ruda bo`lgan boyitish fabrikasi, metallurgiya zavodini qamrab olgan barcha zarur infratuzilmaning mavjudligi rudani ishlab chiqarishni ancha ko`paytirish imkonini beradi. Olmaliq konlarida misdan tashqari oltin, kumush, oltingugurt, tellur, selen, reniyning yirik zahiralari jamlangan, bu ishlab chiqarilayotgan mahsulot yalpi qiymatining 40%dan ortig`ini tashkil qiladi. Respublika hududida ma`lum bo`lgan (Langar, Ingichka, Qaytosh, Yaxton, Sargardon va boshqa) vol`fram rudasi konlaridan tashqari Siritog' va Sautboy konlari ham aniqlangan. Vol`framni Muruntog' va uning qo`shni manbalaridan ajratib olish, shuningdek Sautboy va Saritog', Turboy, Oltintog', Auminza-Beltog' ruda tumanlaridagi konlarda

bashorat qilish va izlangan ishlarni kuchaytirish orqali volfram xom-ashyo bazasini mustahkamlash mumkin.

Qo`rg`oshin va rux konlari uchta sanoat turida taqdim qilingan: karbonat jinslarida qo`rg`oshin-ruxstratiform turi (Uchquloch, Ko`lcho`loq), vulqonli jinslarida skarn-qo`rg`oshin-rux (Qo`rg`oshikon, Kumushkon) va vulqon jinsli kolchedan polimetall (Xandiza va boshqalar) turlari. Qo`rg`oshin va ruxning o`zlashtirilgan zahiralari Uchquloch (3 mln. tonnadan ortiq) va Xandiza (700 ming tonnadan ortiq) konlarida jamlangan. Xandiza konida qo`rg`oshin va rux bilan birga mis, kumush, kadmiy, selen, oltin, indiy topilgan. Toshkent viloyati Shavazsoy litiy ko`mir tufoalevrolit vulqonli konida 120 ming tonnadan ortiq hajmda litiy ikki oksidi topilib, undan litiy ajratib olish mumkin. Unga qo`shimcha komponentlar sifatida 3,2 ming tonna seziiy oksidi va 8,9 ming tonna rubidiy oksidi aniqlangan. Konni kar`yer usulida qayta ishlash mumkin. Rudalarni qayta ishlab, 78% litiy tuzi ajratib olish va bunga qo`shimcha ravishda kaliy va natriy sul`fatlar ishlab chiqarish hamda ishlab chiqarilgan sementni qoldiqlar bilan boyitish yo`li orqali deyarli chiqitsiz texnologiya ishlab chiqilgan. Mamlakatda o`nlab temir ruda konlari topilgan. Qoraqalpog`iston gabbroidlaridagi Tebirbuloq titanmagnetit koni Uraldagi Kachkanar koniga o`xshash. Uning zahirasi 68 mln. tonna metallga baholandi. Jizzax viloyatidagi Temirkon gematit-magnetit va magnetit rudalari temir vulqonli-qoldiq konining hisoblangan zahirasi 35,5 mingt temirga teng. Toshkent viloyatidagi zahirasi qariyb 25,3 mln. tonna temir bo`lgan Surenotin skarn-magnetit koni o`rganilmoqda. Respublika hududida marganetsning ko`p sonli manbalari topilgan. Umumiy resurslari miqdori 15 mln. tonnadan ortiq bo`lgan Dautosh, Qizilbayroq, Taxtakaracha va boshqa plastkonlari eng ko`p o`rganilgan. Zarafshon va Hisor tizmalaridagi marganets polosasini oxirigacha o`rganish kerak. Qizilqumda nurash qatlamida (Alisoy, Oqsoy va boshqalar) marganets konining mamlakatimiz uchun yangi turi aniqlandi. Yonuvchan slanetslar neft` mahsulotlari va qator rangli va noyob metallar olish uchun xom-ashyo bo`lishi mumkin. Ularni o`rganish davrida Sirdaryo va Amudaryo ikki

havzasida slanets manbalarini bashoratlash amalga oshirilgan, ularning chegarasi qo`shni davlatlar – Tojikiston, Turkmaniston, Qozog`istonga borib taqaladi, bu ulkan resurslar mavjudligidan dalolat beradi, dastlabki baholarga qaraganda zahira 93 mlrd. Tonnaga teng, shundan 47 mlrd. Tonnasi O`zbekistonga tegishli, bu hisob-kitoblar 350 m chuqurlikkacha olib borildi. Janubiy va G`arbiy O`zbekiston hududida Boysun, Jom, O`rtabuloq, Sangruntog`, Oqtog`, Uchqir, Kulbeshkak konlari zahiralari baholangan.

Respublika nometall foydali qazilmalarning katta resurslariga ega. Bu mamlakat foydali qazilmalarining keng va xilma-xil guruhi bo`lib, ulardan O`zbekiston iqtisodiyotida keng qo`llaniladi. Bularga (70 turdan ortiq), asosan, kon-ruda va kon-kimyxo xom-ashyosi, agrorudalar, shisha-sopol xom-ashyosi, qurilish matyeriallari konlari kiradi. Xom-ashyosi turli sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarini tozalash uchun sorbent sifatida ishlatiladigan ko`p sonli konlar, shuningdek abraziv materiallar manbalari mavjud. Bezatuvchi, yarim qimmat va kam uchraydigan qimmatbaho toshlarning turli xillari uchraydi. Minerallashgan yer osti suvlari, shu jumladan qo`shimcha gaz-neft` manbalaridan olinadigan gidromineral xom-ashyo (yod, brom va boshqalar ham keyinchalik o`rganib chiqilishi kerak. Misol tariqasida ba`zi xom-ashyo turlari konlarining qisqacha tavsifini keltiramiz.

Markaziy Qizilqumda, Marokash turiga yaqin bo`lgan qato rfosforitlar konlari ochilgan. Jeroy-Sardor konining taxminan 88 mln.tni tashkil qiladigan fosforangidridi zahiralari ishlanmoqda, konning bashorat qilingan resurslari 100 mln.tga teng. Fosforangidridining umumiy zahirasi 33,5 mln.t bo`lgan Qorakatin va Shimoliy Djetimtau konlari aniqlangan va turli darajada tadqiq qilingan.

O`zbekistonda grafitning 30 dan ortiq ko`rinishi topildi. Navoiy viloyatida tadqiq qilingan zahirasi 2,3 mln. t bo`lgan Taskazgan koni sanoat jihatidan e`tiborga molik. Respublika tarkibida kaliy bo`lgan o`g`itlar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo bazasiga ega – bu Tubegatan kaliy tuzlari konidir. Uning o`rganilgan zahiralari 686 mln. tni tashkil qiladi, tarkibidagi xlorlikaliy miqdori 36,8 foizga

teng. 96-97 foizli xlorlikaliy konsentratini ajratib olish va bunga qo`shimcha ravishda osh tuzi olish imkoni mavjud. Toshli tuz koni zahirolari (Janubiy O`zbekistondagi Xo`jakin, Tubegatan, Baybichekan, Qoraqalpog`iston Respublikasidagi Oqqal`a konlari) 90 mlrd.tga baholangan. Borsakelmas tuz koni va Jamansoy ohaktosh koni negizida 270 ming.t kal`siylashtirilgan va 100 ming.t kaustik soda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo`lgan Qo`ng`irot soda zavodi faoliyat yuritmoqda. Karmana kvarts-polevoshat qumlari konining zahirasi 45 mln. t, resurslari 35 mln. t bo`lib, bu butun O`rta Osiyo mintaqasidagi barcha chinni, shisha va kulolchilik korxonalarini oliy navli xom-ashyo bilan ta`minlash imkonini beradi. Respublikada betonit, tarkibida betonit bo`lgan gil, glaukonitni o`rganish va qo`llash bo`yicha geologiya-tadqiqot va ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu moddalarni qo`llash tuproq hosildorligini oshiradi. Topilgan (Arabdast, Xaudag , Azkamar va boshqa) xom-ashyo konlarining resurslari juda katta.

**Qurilish materiallari.** O`zbekiston hududida g`isht, sement, keramzit xom-ashyosi, kesiladigan tosh, gips, ohaktosh, betonni to`ldiruvchi va boshqalarning 500 dan ortiq koni mavjud bo`lib, ular negizida betonni yengil to`ldiruvchi, issiqlikni saqlovchi, bog`lovchi, tom yopish matyeriallari ishlab chiqarish bo`yicha korxonalar, shuningdek kulolchilik kombinatlari va shisha, asbosement trubalar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlamoqda. Mamlakat va xorijda o`zbek bezash va qoplash toshlari – granit, gabbro, marmar keng tanilgan.

O`zbekiston iqtisodiyoti qurilish matyeriallari balans zahirolari bilan yetarlicha ta`minlangan.

**Rangdor toshlar xom-ashyosi.** Respublikada turli xil kam uchraydigan, ba`zida esa noyob rangdor toshlar, minerallar va tog` jinslari keng tarqalgan. Rangdor toshlarning 50 dan ortiq turi: rubin, topaz, turmalin (shyerl, indigolit, vyerdelit, dravit), byerill, akvamarin, ametist, tog` billuri, rauxtopaz, sitrin, morion, pushti kvarts, granatning deyarli barcha turlari (pirop, al`mandin, andradit, grossulyar, spessarit), shuningdek zargarlik-bezatuvchi toshlar: andaluzit,

feruza, opal, kaxolong, nefrit, amazonit, rodonit, azurit, lazurit, dyumort'erit, sodalit, agat, xaltsedon, yashma, agal'matolit, listvenit, zmeyevik, obsidian, xiastolit, alunit, gematit-krovavik, marmaroniks, toshga aylangan daraxt, jadeit, serpentin va boshqalar ruda konlari va minerallashuvi nuqtalarining 400 dan ortiq manbalari mavjud. O'zbekistonning kolleksion nusxalari butun dunyoga mashhur. Mavjud geologiya ma'lumotlari yangi - O'rta Osiyo olmos hududi haqida so'z yuritish imkonini beradi. Bu hududda turli xil olmos nekimberlit jinslari (lamproitlar, lamprofirlar, ishqorli bazal'toidlar, pikritlar, gipyerbazitlar, melankratkarbonatitlar) aniqlangan. Bugungi kunda respublikada taxminan 20 ta quvursimon foydali qazilma yotqizig'i topilgan, shundan uchta sanoatlashtirish ahamiyatiga ega. Hidromineral xom-ashyo O'zbekiston uchun hozircha noan'anaviy hisoblanadi. Buxoro-Qarshi, Surxondaryo, Ustyurt va Farg'ona artezian havzalarining yer osti suvlarini tadqiq qilish natijasida yod, brom, litiy, rubidiy, seziiy, strontsiy va boshqalarning sanoat konsentratsiyasi topildi. Ushbu havzalar chuqur gorizontlaridagi yer osti suvlarida uglevodorodlar manbalari uchraydi, ularni kompleks o'zlashtirish tabiiy gaz, neft va kondensatni qazib olish bilan birga katta iqtisodiy samara beribgina qolmay, atrof-muhitga texnogen ta'sirni kamaytiradi. Yer osti suvlari mamlakat suv resurslarining katta qismini tashkil qiladi, iste'mol va qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda ularning ahamiyati beqiyos. Chuchuk yer osti suvlariga ega asosiy manbalar ulkan quvvatlar – 100 mvaundan ko'proqqa ega. Farg'ona vodiysi, Ohangaron, Chirchiq, Zarafshon, Kitob-Shahrisabz havzasida, To'polang va Sangardak daryolari chiqish konuslarida eng yirik quvvati kuzatiladi. Shu yerning o'zida respublikaning sharqiy va janubiy mintaqalarini suv bilan ta'minlaydigan yirik suv olish manbalari joylashgan. Yer osti suvlari tabiiy resurslari umuman O'zbekiston bo'yicha 24,35 km<sup>3</sup> ni tashkil qilsa, shundan 8,95 km<sup>3</sup> chuchuk suvlar ulushiga to'g'ri keladi. Hozirgi paytda umumiy zahirasi 0,021 km<sup>3</sup>/sut bo'lgan 357 ta chuchuk yer osti suvlari manbasi (mineral va tyermal manbalar bundan mustasno) o'rganilgan, shundan 0,01 km<sup>3</sup>/sut iste'mol maqsadlariga mo'ljallangan. Umumiy o'rganilgan

manbalarning 90 tasidan foydalanilmayapti, bu iste`mol suv ta`minotini rivojlantirish uchun zahira bo`lib xizmat qiladi. O`zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo`mitasi tizimida ikkita ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot instituti, Geologiya muzeyi va Kitob geologiya qo`riqxonasi faoliyat yuritadi. Minera lresurslar instituti mamlakatimizdagi ruda va noruda foydali qazilmalar geologiyasi sohasidagi yagona ilmiy muassasa hisoblanadi. Geologiya-tadqiqot tarmog`ining ilmiy-uslubiy, texnologik va tajriba-konstruktorlik muammolari keng majmuasini hal qilish institut faoliyatining asosiy yo`nalishi hisoblanadi. Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti yer osti qazilmalarini gidrogeologik o`rganish bo`yicha ishlar samaradorligini oshirishga yo`naltirilgan kompleks ilmiy-tadqiqot va tajriba-uslubiy tadqiqotlarni amalga oshiradi, u respublika hududi bo`yicha yer osti suvlari monitoringini o`tkazadi. Geologiya muzeyi faoliyatining nisbatan qisqa davrida (1986 yildan buyon) ilmiy va o`quv markazi sifatida shakllandi, u tadqiqot ishlari bilan birga respublika mintaqalarida geologik qidiruvlarni ham bajaradi. Muzeyning ko`rgazmazallarida O`zbekiston va O`rta Osiyodagi qazilma ishlarida aniqlangan asosiy foydali qazilmalar va mineral xom-ashyo turlarini qamrab olgan turli geologik ekspozitsiyalar namoyish etiladi. Geologiya fondida ham qator xorijiy konlarning noyob namuna nusxalari uchraydi. Xalqaro maqomga ega Kitob geologiya qo`riqxonasi geologiyaning fundamental masalalari va qo`shni sohalardagi tadqiqotlar uchun sinov maydoni bo`lib xizmat qiladi. O`zbekiston mustaqilligi yillarida geologiya tarmog`I davlat tuzilmasi sifatida saqlanibgina qolmay, muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Bu davrda turli foydali qazilma boyliklarining 200 dan ortiq zahirasi aniqlandi va tasdiqlandi. Chuchuk yer osti suvlari zahiralari aholining xo`jalik va iste`mol maqsadlaridagi suvga ehtiyojin ito`liq qondiradi. O`zbekiston qazilma boyliklari katta imkoniyatlarga va ulkan istiqbollarga egaligini ta`kidlash joiz, chunki hozirgi vaqtga qadar ochilgan konlar paleozoy fundamentining yuqoriga chiqqan chegaralarida joylashgan, respublikaning asosiy resurslar imkoniyati esa tutashgan hududlar bilan bog`liq.

Yuqorida qayd etilganlar O`zbekiston mineral xom-ashyo bazasining miqyoslari kattaligi va imkoniyatlarining kengligini ko`rsatadi. Mamlakat qudratli kon-qazish va qayta ishlash ishlab chiqarishga, taraqqiy etgan infratuzilmaga ega. Ko`plab konlarning kompleksligi va qo`shimcha elementlar ajratib olish imkoniyati ularning bahosini oshiradi. Bu afzalliklarni amalga oshirish uchun geologik ob`yektlarni bashoratlash, izlash va baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirish, foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini qo`llash zarur. 2007 yil 17 yanvarda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Geologiya-tadqiqot ishlarini tashkil qilish hamda O`zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo`mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Qarori e`lon qilindi, unda tashkiliy tuzilmani, geologiya-tadqiqot ishlarini boshqarish va bashoratlash tizimini tubdan takomillashtirish, uglevodorod xom-ashyosi, nodir, rangli, noyob yer osti metallari va uran, shuningdek yer osti chuchuk hamda mineral suvlarini izlash va tadqiq qilish samaradorligini oshirish nazarda tutilgan. Qarorni bajarish maqsadida 2007 yil davomida O`zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo`mitasi tizimida «Nodir va rangli metallar geologiyasi», «Uran va noyob yer osti metallari geologiyasi» va «Gidromineralresurslargeologiyasi» ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil qilindi. Markazlar yer osti boyliklarini geologik o`rganishning aniq yo`nalishlariga ixtisoslashgan bo`lib, o`z tuzilmasida ilmiy va ishlab chiqarish bo`linmalarini birlashtiradi, bu geologiya-tadqiqot ishlarining o`rta va uzoq muddatlari dasturlari asosida yer osti boyliklarini kompleks tadqiq qilish, manbalarni izlash, baholash va o`rganish ishlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

### **1.3. Mineral xom – ashyo resurslarining umumiy holati va ulardan foydalanish**

Sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotining butun jarayonini belgilab beradigan xalq iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri kon-qazib olish kompleksi



hisoblanadi. Valyuta to`planishi manbai bo`lgan sanoat uchun xoma-shyo – qora, noyob, rangli va nodir metallarga ehtiyoj muntazam oshib bormoqda. Mamlakat suvereniteti mustahkamlangani sari bu tamoyil saqlanib qoladi. O`zbekiston Respublikasi hududi iqtisodiyotda qo`llaniladigan mineral xom-ashyoning har xil turlarini o`z ichiga olgan turli foydali qazilmalarga boy. Hozirgi paytga kelib, nodir, rangli, noyob, radioaktiv va qora metallar, yonilg`i-energetika, kon-ruda, kimyo va rangdor toshlar xom-ashyosi, qurilish materiallari, chuchuk, mineral hamda termal yer osti suvlarining 2500 dan ortiq manbai aniqlangan.

O`zbekiston oltin, kumush, plavikli shpat, mis zahiralari bo`yicha dunyoda birinchi o`nlik davlatlari qatoriga kiradi. MDHda O`zbekiston oltin zahirasi va qazib olinishi bo`yicha ikkinchi o`rin, kumush, mis, plavikli shpat, tabiiy gaz bo`yicha uchinchi o`rinni egallaydi. Bugungi kunda O`zbekistonda taxminan 900 ta kon ochilgan, ularda mineral xom-ashyoning qariyb 100 turi qazib olinadi, shundan 60 turdan ortig`i sanoatda o`zlashtirilgan va ishlatiladi. Neft`, gaz va kondensatning 142 ta, ko`mirning – 6 ta, nodir metallning – 34 ta, qora metallning – 7 ta, rangli va noyob metallning – 54 ta, kon-rudaning – 49 ta, tosh-rangdor toshning – 19 ta, kimyo xomashyosining – 37 ta, qurilish materiallarining – 372 ta va yer osti suvlarining 172 ta manbai mavjud. Neft`, gaz va kondensat, ko`mir, oltin, mis, qo`rg`oshin, rux, vol`fram, molibden, plavikli shpat, grafit, olovga chidamli materiallar, tabiiy tuzlar, sement va g`isht xom-ashyosi va boshqa qurilish materiallari, yer osti suvlarining ochilgan zahiralari negizida 500 dan ortiq gaz-neft` sanoati, shaxta, kon, kar`yer va razrez, taxminan 300 ta mineral suv quyish bo`yicha zavod va sex uchun suv yig`ish joylari faoliyat yuritadi. Ular orasida Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Angren ko`mir razrezi va Sharg`un shaxta boshqarmasi, Gazli va Sho`rtan gaz sanoati, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Ohangaron va Navoiy sement zavodlari, G`azalkent hamda Olmaliq tosh qazib olish kombinalari va boshqalar mavjud. Respublikada ochilgan mineral xom-ashyo resurslarining umumiy iqtisodiy bahosi 300 mlrd. AQSH dollari miqdorida baholanadi. Har yillik o`shish 9,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qiladi.

Foydali qazilmalarni qazib olish 4,3 mlrd. AQSH dollari miqdorida baholanadi. Kon-qazib olish kompleksi mineral xom-ashyo bazasining zamonaviy holati uzoq istiqbolga uning barqaror ishlashini ta`minlabgina qolmay, quvvatlarin ioshirish va yangi tarmoqlar yaratish uchun haqqoniy asoslar beradi. Noruda foydali qazilmalar, shu jumladan, qurilish materiallari mineral xom-ashyo bazasi mamlakatda keskin rivojlandi. Sement xom-ashyosining 2 ta manbai (ohaktosh komponenti – 824 mln. tonna, gil komponenti – 520 mln. tonna) beshta faoliyat yuritayotgan (Oxangaron, Navoiy, Quvasoy, Bekobod, Angren) va uchta loyihalashtirilayotgan (Beruniy, Sherobod va Jizzax) sement zavodlari uchun xom-ashyo bazasi hisoblanadi. Qoplash toshi konlari (72847 ming m<sup>3</sup>li 31 ta kon) faoliyat yuritayotgan toshni qayta ishlash korxonalarini 100 yildan ortiq davrga ta`minlashi mumkin. Shu bilan birga mamlakatda yuqori bezash xususiyatiga ega bo`lgan qoplash toshlari yetishmayapti. Keramzit xom-ashyosi 10 ta ochilgan konda, asosan, Janubiy O`zbekiston, Farg`ona va Qoraqalpog`istonda jamlangan (122,4 mln. m<sup>3</sup>). G`isht xom-ashyosining 160 dan ortiq (zahirasi 412308 ming m<sup>3</sup>), qum-shag`al materiallarining 66 ta (830888 ming m<sup>3</sup>), ohaktosh ishlab chiqarish uchun ohaktoshning 21 ta (209442 ming tonna), qurilish toshining 36 ta (367402 ming m<sup>3</sup>), beton va silikat buyumlari uchun qumning 20 ta (186676 ming m<sup>3</sup>) va boshqalarning konlari qurilish materiallarini ishlab chiqarishning nisbatan yuqori darajasini ta`minlaydi. Biroq ularni ishlab chiqarish iqtisodiyotning oshib borayotgan ehtiyojlaridan hozirda ortda qolmoqda. «O`zqurilishmateriallari» davlat konserniga tegishli faoliyat yuritayotgan toshni qayta ishlash korxonalarini bilan bir vaqtda hozirgi paytda sanoatning boshqa tarmoqlarida toshni qazib olish va qayta ishlash bo`yicha yangii shlab chiqarishlar, shuningdek xususiy korxonalar tashkil qilinmoqda. Ularning joriy qilinishi yaqin yillarda qoplash plitalarini ishlab chiqarishni va xilma-xilligini bir necha baravar ko`paytirish imkonini beradi. Qator yillar davomida qazilma manbalarini kompleks o`rganish muhim iqtisodiy natijalarga olib keldi. Aniqlanishicha, qator konlardagi qo`shimcha komponentlar, qazilma jinslari, qoldiqli boyitish, konditsiyasiz rudalar

qoldiqlarini ham ishlatish, ulardan olingan mahsulotlar konlarni o`zlashtirish rentabelligini birmuncha oshirdi. Mineral xom-ashyo bazasi tizimli ravishda qayta tiklanishni, aniqlashgan va o`zlashtirilgan zahiralarning sifatini oshirish, ularni joylashtirish tuzilmalarini yaxshilashni talab qiladi. Suverenitet va bozor munosabatlari sharoitida O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlashning yuqori darajasi muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Qator ob`yektiv va sub`yektiv sabablarga ko`ra mamlakat bo`yicha mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash geografiyasi notekis tarqalgan, bu uning katta hajmlarda va uzoq masofalarga tashish zaruratini keltirib chiqaradi. Respublikadagi ko`plab korxonalar muayyan sabablarga ko`ra import qilinadigan qimmatli xom-ashyo bilan ishlaydi. Shu bilan bir vaqtda keltiriladigan xom-ashyoning bir qismi respublika hududida ham yetarlicha uchraydi va uning sifati ba`zi hollarda keltiriladigan xom-ashyodan ham yuqori bo`ladi. Shuning uchun import qilinadigan xom-ashyoning o`rnini bosish uchun mineral xom-ashyo bazasini yaratish va mahalliy xom-ashyoni sanoatda qayta ishlanishiga jalb qilish samaradorligining kompleks geologik-iqtisodiy asoslanishini amalga oshirish birlamch vazifalardan biri sanaladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu sezilarli iqtisodiy samara beradi va noishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bundan tashqari boshqa iqtisodiy vazifalarini hal qilish uchun anchagina valyuta mablag`larini tejab qoladi.

**G`isht-cherepitsa va agloporit xom-ashyosi.** 01.01.2006 yildagi holatga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi bo`yicha 199 joyda g`isht va agloporit ishlab chiqarishi uchun tog` jinslari zahiralari aniqlangan, ularning balans zahiralari 466908,5 ming m<sup>3</sup>ni, jumladan, sariq tuproqli jinslar 383876,9 ming m<sup>3</sup>; gil – 62140,6 ming m<sup>3</sup>, agloporit ishlab chiqarishi uchun sariq tuproqli jinslar – 5284 ming m<sup>3</sup>, shu jumladan, suglinka – 32 ming m<sup>3</sup>, qum – 10288 ming m<sup>3</sup> va boshqalarni tashkil qiladi. Balans zahirasi 174049,5 ming m<sup>3</sup> (manbalar umumiy sonining 37,8%, zahiralalar umumiy miqdorining 37,3%) bo`lgan 75 ta manba

«o`zlashtirilayotgan» manbalar sirasiga kiradi, shundan sariq tuproqli jinslar – 70 (agloporit ishlab chiqarishi uchun 1 ta manba), gil – 4 ta manba. «Zahiralio`zlashtirilgan» manbalar guruhini umumiy zahirasi 292859,0 ming m<sup>3</sup> bo`lgan 124 ta manba, shundan sariq tuproqli jinslar – 105 manbani (agloporit ishlab chiqarishi uchun 1 ta manba), gil 10 ta manbani tashkil qiladi. 2006 yilda Davlat balansi tomonidan birinchi marta Toyqarshigil manbasi hisobga olindi.

**Keramzit xom-ashyosi.** 01.01.2006 yildagi holatga ko`ra, foydali qazilmalar zahirolari davlat balansi tomonidan O`zbekiston Respublikasi hududida umumiy zahirasi 47091 ming m<sup>3</sup> bo`lgan 14 ta konda keramzit xom-ashyosi zahirolari hisobga olingan. Balansdan tashqari zahiralar – 20894 ming m<sup>3</sup>. Dag'al keramika uchun gil. O`zbekiston Respublikasi zahiralar Davlat balansi tomonidan 2006 yil 1 yanvardagi holatga ko`ra dag'al keramika (drenaj trubalari) ishlab chiqarish uchun gil zahirolari uchta kon – Qamishboshi (Farg'ona viloyati), Qo`ng'irtog' («o`rtacha qatlam») va Kattaqo`rg'on (Samarqand viloyati) va suglinka bitta kon – Qo`ng'irtog' II (Samarqand viloyati) bo'yicha hisobga olingan. Gil xom-ashyosi umumiy zahirasi 13128 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, Qo`ng'irtog' konining Janubiy uchastkasi (1984 yilda birinchi marta o`rganilgan) o`rtacha qatlamida uchraydigan gildan drenaj trubalari, past va yuqori qatlamlaridagi gildan esa keramzit va qoplash g'ishti ishlabchiqarish uchun xom-ashyo sifatida ishlatishning printsiplial imkoniyati aniqlandi. Yerlarni rekul'tivatsiyalash uchun sariq tuproqli suglinka. Inson xo`jalik faoliyati natijasida buzilgan yerlarni rekul'tivatsiyalash (tiklash), shuningdek kam unumli (shag'alli, toshli va boshqa) yerlarning hosildorligini oshirish uchun xom-ashyo sifatida sariq tuproqli suglinka va tuproq - o`simlikli qatlam qo`llanilishi mumkin. 01.01.2006 yil holatiga ko`ra, foydali qazilmalar zahirolari davlat balansi tomonidan Toshkent viloyatida joylashgan 3 ta kon – Angren, Dal'nee (Markaziy va Shimoli-G'arbiy Baliqchi uchastkalari), Shavazsoy (Levobyerejniy uchastkasi) yerlarni rekul'tivatsiyalash uchun yaroqli suglinka zahirolari hisobga olingan. Suglinkalar umumiy balansdagi zahirolari 50875 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Angren konidagi

suglinkalar zahirasi «O`zbekko`mir» OAJ tomonidan, Dal'nee va Shavazsoy (Levobyerejniy uchastkasi) konlari tegishli ravishda «OlmaliqKMK»ning zahira xom-ashyo bazasi sanaladi. Angren koni bo`yicha suglinkalarni (tuproq-o`simlik qatlamini) qazib olish 2000-2002 va 2004-2005 yillarda amalga oshirilmadi, 2003 yilda esa 3 ming m<sup>3</sup> qazib olindi.

**Bo`rsimon jinslar.** 01.01.2006 yil holatiga ko`ra, bo`rsimon jinslar zahiralari balansi 3 ta kon: Navoiy viloyatidagi Melovoe, Samarqand viloyatidagi Kattaqo`rg'on, Qashqadaryo viloyatidagi Dehqonobod konlarida hisobga olingan. Umumiy zahiralar 5411,1 ming tonnani tashkil qiladi. Dehqonobod dolomitkoni 1955 yildan beri devortoshi uchun ishlangan, 2002 yildan boshlab dolomit qazib olish vaqtinchalik to`xtatildi. Melovoe koni 1999 yildan beri ishlab kelmoqda, bo`rsimon jinslar zahiralari shimoliy va sharqiy tomonga ko`payishi mumkin. Xom-ashyoga talab past bo`lganligi sababli 1999-2005 yillarda 0,9 ming tonna, xususan, 2005 yilda – 0,1 ming tonna bo`rsimon jins qazib olindi. Bo`rsimon jinslar (dolomit) qurilish bo`ri ishlab chiqarishda qo`llaniladi. Kattaqo`rg'on koni zahira uchun o`rganilgan, bo`rsimon jinslar zahiralari 1647 ming tonna miqdorida belgilangan. Bo`rsimon jinslar (dolomitlashtirilgan ohaktosh) tabiiy ko`rinishda MM-3 turkumiga, boyitilganidan so`ng esa MM-2 turkumiga xos, tabiiy bo`r o`rniga ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, O`zbekistonda tabiiy bo`rning o`rniga Qashqadaryo viloyatidagi Qo`ng'irtog' va Kosantog' bo`rsimon jins moddalari xom-ashyo sifatida qo`llanilishi mumkin. Qo`ng'irtog' va Kosantog'dagi bunday jinslar umumiy zahirasi va bashorat qilingan resurslari 6,8 mln. tonnani tashkil qiladi. Ohak kuydirish uchun ohaktosh. Ohaktosh ishlab chiqarish uchun mineral xom-ashyo sifatida ohaktosh va dolomit qo`llaniladi. 01.01.2006 yildagi holatga ko`ra, Davlat balansi tomonidan respublika hududida 213758 ming tonna miqdoridagi 23 ta kondagi ohak kuydirish uchunohaktosh zahiralar ihisobga olingan. Bundan tashqari, balans tomonidan sodai shlab chiqarish uchun karbonat komponenti

sifatida 75644,0 ming tonna miqdoridagi bitta kon (Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Jamansay koni) bo'yicha ohaktosh zahiralari hisoblangan.

**Qum-shag'al materiallari.** Qum-shag'al materiallar ioddiy va gidrotexnik beton uchun to'ldiruvchi (yirigi – shag'al va mayda tosh, maydasi - qum), asfal't-beton va bitum-mineral qorishmalari, avtomobil' yo'llari qurilishi uchun asos va temir yo'llari uchun ballastirovka uchun, temir-beton qurilmalari ishlab chiqarish uchun, shtukaturka va qoplash qorishmalari (qum) va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi. Qum-shag'al materiallari konlari, asosan, daryolar qayirlari va qayirusti terrasalari, daryo chiqish konuslari va muvaqqat suv oqimlari bilan bog'liq bo'lib, respublika hududida deyarli hamma yerda uchraydi. Xom-ashyo bilan faqat Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'minlanmagan, ularning ehtiyojlari qo'shni viloyatlar resurslari hisobiga qondiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat balansi tomonidan 01.01.2006 yil holatiga ko'ra, 768913 ming m<sup>3</sup> miqdorida 76 kon (shu jumladan, zahiralari ishlatib bo'lingan 2 ta kon) bo'yicha qum-shag'al qorishmasi zahiralari hisobga olingan, balansdan tashqari zahiralar 443 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. Hozirgi paytda respublika hududida 53 ta kon bo'yicha qum-shag'al qorishmasi zahiralari qayta ishlanmoqda, jumladan, ularning ikkitasi – Maylu-Suu (Andijon viloyati) va Qashqadaryo (Qashqadaryo viloyati) konlarida tasdiqlangan zahiralar ishlatib bo'lingan. Ushbu konlar bo'yicha xom-ashyo olish ishlatib bo'lingan qum-shag'al materiallarini tozalash hisobiga amalga oshirilmoqda. Chinoz koni 2-son uchastkasida (Toshkent viloyati) ham xom-ashyoni xuddi shunday usulda olish yo'lga qo'yilgan. Ablikkoni (Toshkent viloyati) bo'yicha 1999 yildan beri qum-shag'al qorishmasi olinmadi.

**Qurilish toshlari.** O'zbekiston Respublikasi qurilish toshlarining katta zahiralari ega, ular fizik-mexanik xususiyatlariga ko'ra turli maqsaddagi betonni to'ldiruvchi maydatosh, xarsang-tosh, temir yo'llarini ballastlashtirish uchun maydatosh, trotuar va sohilbo'yiga yotqiziladigan donalitoshlar uchun ishlatilishi mumkin. 01.01.2006 yil holatiga ko'ra, respublika hududida zahirasi 450398,0

ming m<sup>3</sup> bo`lgan 48 ta qurilish toshlari koni hisobga olingan, balansdan tashqari zahiralari 15170 ming m<sup>3</sup> ni, xususan, karbonat jinslari – 232401,3 ming m<sup>3</sup>, metamorflisanetslar – 97 ming m<sup>3</sup>; otilib chiqqan jinslar – 215873,7 ming m<sup>3</sup> va balansdan tashqari 10235 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. O`zlashtirilayotganlar sirasiga 19 ta kon: karbonat jinslarining 11 ta koni, slanetslarning 2 ta koni, otilib chiqqan jinslarning 6 ta koni kiradi. 29 ta kon: karbonat jinslarining 23 ta va otilib chiqqan jinslarning 6 ta koni zahirali (o`rganilgan) konlarga ajratilgan. Qurilish ishlari va silikat ishlari uchun qum. 01.01.2006 yil holatiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi hududida qurilish ishlari (beton va qurilish qorishmalari) va silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun 25 ta qum koni zahiralari hisobga olingan, shundan: silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun qum – 59690 ming m<sup>3</sup>; silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun sariq tuproq lijinlar – 3545 ming m<sup>3</sup>; qurilish ishlari (beton va qurilish qorishmalari) uchun qum – 123738 ming m<sup>3</sup>ni tashkil qiladi. 6 ta kon: silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun 4 ta kon, qurilish ishlari (beton va qurilish qorishmalari) uchun qumning 2 ta koni – qazib olinayotganlar sirasiga kiradi. Zahiralari o`rganilgan konlar sirasiga 18 ta kon: silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun 8 ta qum koni va qurilish ishlari (beton va qurilish qorishmalari) uchun 10 ta kon ajratilgan. Silikat buyumlari ishlab chiqarish uchun sariq tuproqli jinslarning bitta koni faoliyati to`xtatilgan konlar sirasiga kiradi.

### **Umumtarqalgan foydali qazilmalar: ularning holati va ishlatilishi**

O`zbekiston Respublikasi hududi, iqtisodiyotda ishlatiladigan mineral xom-ashyo turlarini o`z ichiga olgan har xil foydali qazilmalarga boy. Eng yirik kon qazib oluvchi korxonalariga rudali konlar bo`yicha Olmaliq va Navoiy kon-metallurgiya kombinalari, ko`mir bo`yicha «O`zbekko`mir» OAJ, qurilish materiallari bo`yicha «O`zqurilishmateriallari» AK va boshqa korxonalar kiradi. 1995 yildan 2007 yilgacha davrda rudali va noruda konlar bo`yicha foydali qazilmalarni qazib olish 3,5 baravar oshdi. 1998 dan 2007 yilgacha bo`lgan davrda O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 07.06.2007 yildagi foydali

qazilmalar konlarini ishlab chiqish huquqini beradigan «Yer qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalarni berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-649-son Qarori chiqqunga qadar «Sanoatkontexnazorat» davlat inspeksiyasi tomonidan 564 ta tog` ajratmasi berilib, ro`yxatga olindi (32-jadval va 84-rasmga qarang). «Yer osti boyliklari to`g`risida»gi Qonun talablarini buzgan holda foydali qazilmalarni qazib olayotgan korxonalar, ayniqsa, xususiy korxonalar, shuningdek tadqiq qilinmagan yer osti uchastkalarida ishlayotgan korxonalar mavjud. O`zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yer qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalarni berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-649-son Qarori loyihasi, «Yer osti uchastkalaridan foydalanish huquqini berish tartibi va shartlari to`g`risida»gi Nizom va O`zbekiston Respublikasida umum tarqalgan foydali qazilmalari ro`yxatini ishlabchiqishda ishtirok etdi. Hozirgi paytda respublikasida umumtarqalgan foydali qazilmalari ro`yxatini ishlab chiqishda ishtirok etdi. Hozirgi paytda respublika bo`yicha mavjud umumtarqalgan foydali qazilmalar konlari: tuproq kar`yerlari – 142 ta; qum kar`yerlari – 66 ta; shag`al – 112 ta; xarsangtosh kar`yerlari – 8 ta; ohaktosh kar`yeri – 19 ta; chig`anoq kar`yerlari – 8 ta hisobga olingan.



Худуд номи	тузроқ қарьларди				қум қарьларди				шағал қарьларди						
	дона	га	дойҳавий захира, млн. метр куб	2007 г.		дона	га	дойҳавий захира, млн. метр куб	2007 г.		дона	га	дойҳавий захира, млн. метр куб	2007 г.	
				река	амал				река	амал				река	амал
Қорақалпоғистон Республикаси	5	80	19,8	0,049	0,035	3	12	0,35	0,12	0,06	3	94	10	0,015	0,012
Андижон	14	74,4	23,43	0,016	0,011	3	19,5	0,459	0,14	0,1	4	205,5	0,805	0,177	0,135
Бухоро	2	27	14	0,05	0,05	5	701,9	304,9	0,03	0,03	1	10	120	13	12,5
Жеззах	3	10	2,6	0,16	0,94	1	3	Эксперт. сигналари	0,03	0,16	1	1	тажриба- сановат. ишланмаси	0,03	0,017
Қашқадарь	8	103,2	2,2	0,007	0,062	22	708,7	20,4	0,07	0,06					
Навоий	1	14,5	6,275	0,015	0,008	3	46,5	15,216	0,22	0,1	17	113	3,653	0,165	0,065
Наманган	20	48,9	20,1	0,055	0,4	1	3	75	0,17	0,13	17	39,9	22,97	0,3	0,2
Самарқанд	16	90,87	13,046	0,15	0,18	3	35	11,252	0,35	0,23	11	393,5	28,7	0,25	0,21
Сурхондарь	14	82,5	9,8	0,047	0,036	10	219,6	5,3	0,05	0,03	10	679,5	60,9	21,56	15,051
Сурдарь	1	21	18	0,01	0,01	6	5	0,15	0,15	0,15	1	7,5	14,5	0,2	0,2
Тошкент	43	1773	50,8	35	30	3	93,3	0,8	0,85	0,85	24	1637	4	0,239	0,215
Фарғона	14	125,1	26,353	3,2	2,42	4	108	101,6	2	0,9	23	198,9	663,2	53,2	47,2
Хоразм	1	200	12,1	0,52	0,52	2	482	25,4	0,03	0,03					
Жамп	142	2650	218,504	39,279	34,672	66	2438	560,827	4,2	2,84	112	3380	928,728	89,13	75,805

1-jadval. 01.01.2008 yil holatiga O`zbekiston Respublikasi viloyatlari bo`yicha umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish va ularning zahirasi

Худуд номи	бутил тош қарьерлари				оқалтош қарьерлари				ракушкин қарьерлари				
	дона	га	2007 г.		дона	га	2007 г.		дона	га	2007 г.		
			лойиҳаловий захира, млн. метр куб	режа амал			лойиҳаловий захира, млн. метр куб	режа амал			лойиҳаловий захира, млн. метр куб	режа амал	
Қорақалпоғистон Республикаси					5	28,5	22,1	0,063	0,06				
Андижан					1	100	25	0,071	0,051				
Бухоро					1	89,2	12401,4	0,01	0,01				
Жиззах	1	5	не утириқд	0,001									
Қашқадарё	2	35	1,1	0,008	0,008								
Навоий					3	402,4	101,037	1,865	0,879				
Наманган	1	5	10	1	0,8	2	0,5	0,1	0,1	3	10,2	18,1	2
Самарқанд	2	18,2	14,211		0,12	3	21	16,001	0,107				
Сурхондарё	2	28		0,1	0,07	1	60	15,8	0,098				
Сурдарё													
Тошкент					2	1033,3	5	0,4	0,35	3	627	24,1	0,5
Фарғона					1	30	1,1	0,03	0,03	2	14	1,1	0,09
Жами	8	91,2	25,311	1,108	0,9991	19	1766,4	12587,938	2,744	1,678	8	651,2	43,3
													2,59
													2,54

2-жадвал. 01.01.2008 йил ҳолатига О`zbekiston Respublikasi viloyatlari bo`yicha umumtarqalgan foydali qazilmalardan foydalanish va ular zahiralari

**O'zbekistonda neft va gazni qayta ishlash.** Hozirgi vaqtda energiyaning asosiy manbalaridan biri neft va gaz hisoblanadi. Ulardan asosan turli suyuq yoqilg'ilar- benzin, kerosin, dizel va qozonxona yoqilg'isi (mazut) olish uchun foydalaniladi. Shuningdek, neftdan maxsus va surkov moylari ham ishlab chiqariladi. Qayta ishlash jarayonlari orqali olingan mahsulotlar plastmassalar, sintetik kauchuk va smola, sun'iy tola, yuvish vositalari va shu kabi bir qator xalq xo'jaligi uchun zarur maxsulotlar ishlab chiqarishda xom-ashyo sifatida foydalaniladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab ishlab chiqarishning asosiy sohalaridan hisoblangan neft va gaz sanoatida katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz birinchi prezidenti I.A. Karimovning 1992-yildagi neft va gaz sohasini rivojlantirish to'g'risidagi qaror va farmonlari sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar qo'lamini aniqlab berdilar. Respublika yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish maqsadida mavjud ishlab turgan zavodlar qatoriga yangi zavodlar qurishga kirishildi. Yangi quriladigan zavodlar ishga tushishi bilan ichki bozordagi yoqilg'i mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish bilan birgalikda tashqi bozorga ham mahsulot eksport qilish ko'zda tutilgan edi. Taqqoslash maqsadida quyidagi jadvalni keltiramiz:

### 3 - jadval

#### 2012 yilda faoliyat olib borayotgan neftni va gazni qayta ishlovchi zavodlar

Mamlakat	Neftni qayta ishlovchi zavodlar soni	Gazni qayta ishlovchi zavodlar soni	Kuniga neftni qayta ishlash hajmi (ming litr)
Rossiya	40	37	874434
<b>O'zbekiston</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>35613</b>
Qozog'iston	3	14	54850,9
Ozarbayjon	2	2	63436,2
Turkmaniston	2	2	37680,2
Eron	9	40	230691,6

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar neft va gazni qayta ishlash zavodlari Oltiariq (1904 yil), Farg'ona (1958 yil), va Muborak (1971 yil) gazni

qayta ishlash zavodlari qatoriga 1997-yil 22-avgustda ishga tushirilgan Buxoro neft va gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan zavod va 2001 yilda Sho'rtan gaz-kimyos majmuasi qo'shildi. Hozirgi kecha kunduzda Ustyurt platosida Janubiy Koreya respublikasi bilan hamkorlikda qurilishi boshlangan "Ustyurt gaz-kimyos majmuasi" 2016 yilda ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda. Umuman, O'zbekistondagi neft va gazni qayta ishlash sohasini vujudga kelishiga nazar solsak, XIX-asr oxirida Farg'ona vodiysida ochilgan dastlabki konlar asosida 1904 — 1906 yillarda O'zbekistonda birinchi Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi asosan neftni birlamchi qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 1,5 mln. tonnani tashkil etadi.

Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida 1958 yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodda neftni birlamchi va ikkilamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Uning hozirgi vaqtdagi ishlab chiqarish quvvati yiliga 5,5 mln., tonna neft va gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan. Zavodda shuningdek, yiliga 500 ming tonna moy ishlab chiqarish quvvatiga ega qurilmalari mavjud. 1996 yil Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi chet el ilg'or texnologiyalari (Yaponiya) asosida qayta rekonstruktsiya qilindi. Hozirda zavodda neft mahsulotlarini 50 dan ortiq turi ishlab chiqariladi.

Respublikamizda neftni qayta ishlash bilan birgalikda gazni qayta ishlash sohasiga ham katta e'tibor berildi. 1971 yil dekabr oyida Muborak gazni qayta ishlash zavodi birinchi navbati ishga tushirildi. Zavod asosan xalq xo'jaligi uchun eng arzon yoqilg'i, tabiiy gaz etishtirib beradi. Muborak gazni qayta ishlash zavodining dastlabki quvvati yiliga 5 mlrd. kub metr tabiiy gazni qayta ishlashdan boshlangan. Hozirgi vaqtda umumiy quvvat yiliga 30 mlrdkub metrni tashkil etadi. Muborak gazni qayta ishlash zavodi xom-ashyo manbalari asosan yuqori oltingugurtli (4,5- 5,0 foiz) O'rtabuloq. Dengizko'l-Havzakdir. Zavodning asosiy mahsulotlari tabiiy gaz, texnik oltingugurt, barqarorlashtirilgan kondensat va suyultirilgan gaz hisoblanadi.

Istiqlol yillariga kelib, 1997 yilda gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan xorijiy davlatlarning ilg'or zamonaviy texnologiyalaridan biri Fransiyaning "Teknip" kompaniyasi texnologiyasiga ko'ra Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Zavodning umumiy quvvati yiliga 2,5 mln. tonna neft va gaz kondensati aralashmasini birlamchi qayta ishlash jarayonlari olib boriladi. Zavodni xom-ashyo manbai Ko'kdumaloq konlaridan olinayotgan gaz kondensatlari va olinadigan maxsulotlari esa asosan suyultirilgan gaz, yuqori sifatli benzin, kerosin va dizel yoqilg'ilari hamda qoldiq mazut hisoblanadi.

Respublikamizda neft kimyosi va organik sintez moddalar olishni ko'paytirish maqsadida 17-fevral 1998-yil "O'zbekneftgaz" va "ABB Lummus Global" ( AQSh), "ABB Soimi" (Italiya), «Nisho Ivai», "Tokyo iujiutgiug"(Yaponiya), kompaniyalari o'rtasida gaz kimyo majmuasini loyixalash, qurilmalarni yotqizish, o'rnatish va ishga tushurish bo'yicha shartnoma imzolandi. 2001 yil oxirida Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi ishga tushirildi va 2002 yil 15-avgustda birinchi o'zbek polietileni ishlab chiqarildi

## **II BOB. MINERAL RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI**

### **2.1. Mineral xom- ashyo resurslaridan majmualiy foydalanish.**

Mineral xom-ashyo resurslari tugab qolishi bilan bog'liq bo'lgan krizis oldini olishning yana bir yo'li bor. Bu esa boyliklari qazib olish, boyitish va tashishda isrofgarchilikka qarshi kurashish, kompleks foydalanish masalalaridir. Tiklanmaydigan mineral resurslarni muhofaza qilish ham asosan ana shundan iborat.

Ishlab chiqarishni intensivlashtirish va juda ko'p ichki rezervlarni xo'jalik aylanmasiga kiritishda foydali qazilmalarning konlarida bo'lgan barcha qimmatli komponentlarni maksimal darajada ajratib olish juda katta ahamiyatga ega.

Birinchi texnologik jarayon – mineral xom-ashyoni yer ostidan qazib olish va uni yarim fabrikatga aylantirish jarayonidir. Kon sanoati korxonalarida konlarning qaytmog'ini sidirib olishga harakat qiladilar, foydali komponentlarga qashshoq va qiyin qazib olinadigan rudalar esa o'z joyida qolaveradi yoki keraksiz jinslar bilan birgalikda yer yuzasiga chiqarib tashlanadi.

Ko'pchilik foydali qazilmalar konlari kompleks konlar bo'lib, ular xom ashyosi tarkibida bir qancha foydali komponentlar bo'ladi. Bunday komponentlardan foydalanish ko'pgina hollarda iqtisodiy jihatdan foydalidir. Masalan, temir rudalarida asosiy komponent bilan bir qatorda titan, vanadiy, kobalt, mis, rux va bir qancha nodir metallar, neft konlarida gaz, oltingugurt, azot uchraydi.

Texnologiya takomillashganligi tufayli neft quduqlaridan foydalanilayotganda yo'l-yo'lakay uchraydigan tabiiy gazning yarmidan ko'prog'i havoga chiqarilib yuborilar va xavfsizlik texnikasi nuqtai nazaridan yondirilib tashlanar edi. Iqtisodiy va ekologik nuqtai nazaridan bu katta isrofgarchilikka barham berishni taqozo qiladi.

Qattiq mineral xom-ashyodan foydalanishda ham juda katta isrofgarchiliklar mavjud. Ishlatilib tashlangan shaxta va konlarda mlrd- tonna ko'mir va rudalar

yotibdi. Yon devorlarda va shipni ushlab turadigan ustunlarda qanchadan-qancha qazilmalar qoladi. Shaxta usuli bilan ko'mir qazib olinganda sanoat zaxirasining to'rtidan bir yoki ikkidan bir qismi nobud bo'ladi. Yerosti boyliklarini muhofaza qilishning samarali yo'lga qo'yilmaganligidan isrofgarchiliklar bundan ham ko'p bo'lishi mumkin. Ko'pgina shaharlar va shaxtyor pasyolkalari anchagina ko'mir zaxirasiga ega bo'lgan qatlamlar ustiga qurilgan edi. Yaqin o'tmishda Kuznetsk, Qarag'anda va O'zbekistondagi Angren va boshqa ko'mir havzalarida, afsuski, shunday bo'lgan.

Temir va boshqa rudalarning isrof bo'lishi ham texnologiyaning mukammal emasligi oqibatidir. Bunda ustun bo'lib xizmat qilgan qatlamlar ishlatilmay qoldirilib, eng qulay va boy qatlamlardangina ruda qazib olingan. Foydali qazilmalarni qazib olishga noratsional yondashishning asosiy manbai shundaki, kon sanoati rayonining qaysi yo'ldan taraqqiy etishi optimal darajada aniq va to'la bashorat qilinmaydi.

Konlarni ochiq usulda qazib olishning rivojlantirilishi yerosti boyliklarini muhofaza qilishga va foydali qazilmalardan foydalanishni yaxshilashga imkon beradi. Bu usul mineral resurslarning isrof bo'lishini 3-10 % kamaytiradi.

Mamlakatimizda mineral xom-ashyodan kompleks foydalanishda keyingi yillarda kattagina yutuqlar qo'lga kiritildi. Chunonchi rangdor metallurgiya korxonalarida kumush, vismut, platinaning deyarli hammasi, oltingugurtning 30 %i, rux, qo'rg'oshin va misning 10 % igachasi ajratib olinayotir. O'zbekistondagi Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida ham ana shunday ishlar qilindi. Chunonchi, Oltintopgan, Qo'rg'oshinkon va boshqa qo'rg'oshin-rux konlarida ruda boyitish natijasida qo'rg'oshin, rux va pirit konsentratlari olinmoqda. Qo'rg'oshin va rux konsentratini kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan esa sulfat kislota va selen, pirit kuyindilaridan qo'rg'oshin, rux, mis, temir va boshqa elementlar olinmoqda.

Hozirgi kunda boyituvchi fabrikalar va metallurgiya zavodlarining chiqindilaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Mutaxassislarning fikricha,

so'nggi 100 yil ichida yer yuzasiga 20 mlrd tonnadan ortiq tashqal (shlak) tashlangan va qariyb 3 mlrd t kul havoga chiqarilgan.

Hozirgi davrda ham, uzoq davrda ham iqtisodiyotning balansli o'sishiga erishishda mamlakat xomashyo resurslari bilan puxta ta'minlanishi muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda qimmatli foydali qazilmalarning juda ko'pi yirik konlariga ega. Biroq, xalq xo'jaligini muttasil rivojlantirish mineral xomashyoning turli xillariga bo'lgan ehtiyojlarni tez o'stiradi. Ishlab chiqarishning foydali qazilmalar bilan ta'minlanishi hamisha yetarli darajada bo'lishi uchun bu qazilmalarning qidirib topilgan zaxiralarni o'stirish sur'atlari ularni qazib olishga nisbatan jadalroq bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu hol bizning xalq xo'jaligini energiya va xom-ashyo kelgusida ham kafolatlashimizga imkon beradi.

O'zbekiston tabiiy va jumladan, mineral resurslarning xilma-xilligi jihatidan dunyoda oldingi o'rinda turadi.

Mustaqillik yillarida foydali qazilmalarning ayniqsa ko'p konlari topildi. O'zbekistondagi mineral xomashyo resurslarning xususiyati shundaki, ular yirik kon korxonalari qurishga imkon beradigan noyob konlardir. Kon korxonalarining katta bo'lishi kapital xarajatlarni kamaytirishga va mahsulot tannarxi eng arzon bo'lishishga imkon beradi. Mineral resurslarni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlaridan foydalanish zarur. Jumladan, konlardan barcha foydali komponentlarni to'liq ajratib olish, ishlab chiqarishda ulardan tejimli, kompleks va chiqitsiz foydalanish, yerosti boyliklaridan foydalanish ishlarining zararli ta'siriga barham berish, foydalanish davomida tarqalgan mineral moddalarning sun'iy to'planishi masalalarini hal qilish va boshqalar.

## **2.2. Foydali qazilmalardan foydalanish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish.**

**Yer osti qazilmalarini qazib olishda atrof-muhitning ifloslanishi.** Qazilma boyliklarni qazib olish, tashish, qayta ishlash vaqtida atrof-muhit ifloslanadi. Minglab unumdor Yerlar industrial dashtlarga aylanadi. Suv, havo, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkaziladi. Tog'kon sanoati



korxonalari faoliyati natijasida har yili kon usti jinslari, flotasion boyitish chiqitlari, turli xil shlaklar, klenkerlar hosil bo'ladi. Mineral xom ashyolar ochiq (kar'yer) yoki yopiq (shaxta) usullarida qazib olinadi. Ochik usulda qazib olingan qazilmalardan ancha to'laroq foydalanish imkoniyati bo'lsa-da, atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'siri yuqori bo'ladi. Bunday ta'sir doirasi yuzlab *km* gacha boradi. Respublikamizda ochiq usulda qazib olinadigan konlar ko'p. Ularning chuqurligi 50-350 metr ga yetadi. Konlarning ochiq usulda qazib olinishi surilmalarga sabab bo'ladi. Surilmalar kon yonbag'irlarida, kar'yer chuqurligi va ularning devor qiyaligi oshgan sari qiya yotgan tog' jinslari qatlamining surilishi hisobiga sodir bo'ladi. Bunday surilmalarni Qo'rg'oshinkon, Kyalmakir, Angren konlarida kuzatish mumkin.

Yopiq usulda qazib olinadigan qazilmalar uchun sarf-xarajat yuqori bo'lishi bilan birga qazib olish jarayonida hozirgi mavjud texnologiyalarni takomillashmaganligi sababli foydali ma'danlarning 25% dan ortig'i yerostida qolib ketadi. Konlarni ochik va yopiq, usulda qazish jarayonida chiqindilar yig'ilgan sun'iy tepaliklar bilan birga yer sathini cho'kish, yoriqlar hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Sathning chuqishi ko'pincha yopiq, usulda qazib olish jarayonida hosil bo'lgan bo'shliqlarni ustki va yon atrofdagi tog' jinslarining o'pirilib tushishi hisobiga sodir bo'ladi. Bunday cho'kishlar AQSh ning Kaliforniya shtatida, San-Franciskoda, San-Xaokin vodiysida, Mexikoda, Tokio, Osaka shaharlarida, shuningdek, Kuzbassda, Karagandada, Volga bo'ylarida kuzatiladi. Bu hududlarda Yer sathining chuqishi hozirgacha o'rta hisobda 8-10 metrdan 20 metrga etadi. Cho'kish oqibatida kanallar, binolar, gidrotexnik inshootlar buziladi. Qazilmalarni qazib olish chuqurligi oshgan sari suv saqlovchi qatlamlardan kongra oqib kiradigan suv miqdori ham ortib boradi. Kon ichida va uning atrofida burg'ulangan quduqlar orqali minglab, millionlab  $m^3$  suv kon tashqarisiga chiqarib turiladi. Natijada kon atrofidagi 10-20 *km* gacha bo'lgan masofalarda Yer osti suvlari sathi pasayib, buloq, va quduqlarni qurishiga sabab bo'ladi.

Kon qazish ishlarida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket qisqa vaqt ichida 5-6 tonnadan 200-300 tonnagacha, ba'zan 500-1000 tonnagacha portlovchi moddalar ishlatiladi. Har bir  $m^3$  tog' jinsini portlatish uchun 0,7-0,9 *kg* portlovchi modda ishlatiladi.

Kar'yerlarda bo'ladigan portlatishlar atmosferani katta miqdorda chang va gazlar bilan ifloslanishiga olib keladi. hozirgi vaqtda tog' jinlarini portlatish hisobiga atmosferaga chiqarilayotgan chiqindilar hajmi 2 million  $m^3$ ga yetadi. Kar'yerlarda bir marotaba umumiy portlatish vaqtida atmosferaga 250 tonna chang va 5-6 ming  $m^3$  zararli gazlar chiqadi. Bunda hosil bo'lgan chang bulutlari 3000 metr balandlikkacha ko'tarilib, shamol yo'nalishi bo'ylab 1-1,5 km gacha tarqaladi. Bulardan tashqari, tog' jinlarini tashish vaqtida atmosfera transport vositalaridan chiqadigan zararli gazlar va yo'llardan ko'tariladigan changlar bilan ham ifloslanadi. Oqibatda, tuproq tarkibi o'zgarib hosildorlik kamayadi, suv havzalari, dov-daraxtlar, parrandayu darrandalar zarar ko'radi. Insonlar turli kasalliklarga chalinishlari mumkin. Masalan, Buyuk Britaniya tuproqlarida rux elementi miqdorining va o'simliklarda molibdenning ko'payishi oshqozon-ichak va rak kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'layotganligi aniqlangan. Tarkibida ko'p miqdorda selen elementi bo'lgan ozuqani iste'mol qilish odamlar sochini tukilishiga, qo'ylarning tuyoqlari kasallanishiga ham sabab bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishi, fan-texnika inqilobi ro'y berishi bilan kishilarning xo'jalik-texnik ehtiyojlari va texnika qudrati tabiiy jarayonlarga katta ta'sir etib, yer qiyofasini jiddiy o'zgartirib yubormoqda. Inson aqli va qudrati ila yaratilgan texnika kirib borayotgan sfera – texnosfera tarkib topishida mineral resurslar katta rol o'ynaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti asrida yerosti boyliklaridan foydalanishda uch xususiyat mavjud: birinchidan, ishlab chiqarishning tez sur'atlar bilan rivojlanishi nihoyatda ko'p miqdordamineral resurslarni talab etadi, hozirgi paytda mineral resurslardan foydalanishning hajmi dunyo bo'yicha har 15 yilda ikki marta oshmoqda; ikkinchidan, sanoat va qishloq xo'jalik foydali qazilmalarining yangidan-yangi turlaridan foydalanilmoqda va ayni vaqtda ular oldiga butunlay yangi talablar qo'yilmoqda; uchinchidan, geologiya va tog' ishlarida yer osti boyliklarining joylashishidagi qonuniyatlarni topish va ilmiy bashorat qilish gurkirab avj olmoqda.

Mineral xom –ashyoning ko'p ishlatilishi asosan, Yer sharida aholi sonining o'sishi va hozirgi kishilarning xilma-xil ehtiyojlari ortib borishi bilan bog'liqdir. So'nggi asrda 100 mlrd tonna ko'mir yoqilg'i yoqilayotir va havoga 3 mlrd tonna kul chiqarildi. Yiliga 1,5 mlrd tonnadan ortiq qattiq yoqilg'i yoqilayotir. Hozirgi vaqtda yiliga 100 mlrd tonnadan ortiq ruda va mineral xom - ashyolar qazib olinmoqda, 3000 mln. tonnadan ortiq mineral o'g'it ishlab chiqarilmoqda. Holbuki, texnologiyaning o'ta takomillashmaganligidan hozir olingan metallarning deyarli yarmi va kimyoviy xomashyoning uchdan bir qismi nobud bo'layotir.

Hozirgi vaqtda bir kishining ehtiyojini ta'minlash uchun yerdan 27 tonnadan ortiq xomashyo, jumladan, 2 tonnadan yoqilg'i chiqarilmoqda. XVIII asrda xo'jalikda 28 kimyoviy elementdan, XIX asr boshlarida 60 ga yaqin elementdan foydalanilgan bo'lsa, hozirgi zamon ishlab chiqarishi 200 dan ortiq turdagi mineral xom-ashyodan foydalanayotir.

Mineral resurslar har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Foydali qazilma konlari bor bo'lgan turli rayonlar yangi posyolka va shaharlar paydo bo'ladi. Mineral xom-ashyo qazib chiqarish va uni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan shahar va shahar tipidagi posyolkalar juda ko'p. Markaziy Osiyoda – Shevchenko, Navoiyda va Zarafshonda, ham ular sirasiga kiradi. Foydali qazilmalar konlarining o'zlashtirilishi natijasida ro'y berayotgan urbanizatsiya jarayoni hozirgi kunda deyarli hamma joyda namoyon bo'layotir. Tadqiqotchilar 150 yillardan so'ng yer yuzasining uchdan bir qismi shahar aholi punktlari bilan band bo'lsa kerak, deb taxmin qilishmoqda.



**1-rasm.** Kar'yer. Ochiq usulda qazib olish

### **III BOB. UMUMTARQALGAN FOYDALI QAZILMALARNI MUHOFAZA QILISH VA OQILONA FOYDALANISH USTIDAN DAVLAT NAZORATI.**

#### **3.1. Mineral resurslarni muhofaza qilishda davlat boshqaruvi.**

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish davlat tomonidan tartibga solish “Yer osti boyliklari to`g`risida”gi qonunning 6-moddasiga binoan quyidagilardan iborat:

- Yer osti boyliklari geologik jihatdan o`rganish va muhofaza qilish, mineral resurslardan oqilona, kompleks foydalanish, ular bilan bog`liq bo`lganishlarni bexatar yuritishga doir me`yorlar va qoidalarni belgilash;
- Mineral xom-ashyo bazasini rivojlantirishni ta`minlash;
- foydali qazilmalarni asosiy turlarini qazib olishning hozirgi paytdagi va istiqbolga mo`ljallangan hajmlarni belgilash;
- yer osti boyliklardan foydalanganlik uchun to`lovlarni belgilash va undirish;
- yer osti boyliklarni muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish ustidan tekshiruv va nazoratni olib borish.

Yuqorida sanab o`tilgan vazifalarni bajarishda davlat boshqaruv organlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va har bir davlat organining o`zi to`g`risidagi Qonunni yoki Nizomiga muvofiq yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir munosabatlarni tartibga solibturadi. Ularning vakolatlarining mohiyati va mazmuniga ko`ra 2 katta guruhga: umumiy va maxsus boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga ajratiladi.

Umumiy boshqaruv davlat organlariga O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari kiradi. Maxsus davlat boshqaruvi organlari o`z navbatida – kompleks, sohalar va funksional boshqaruv organlariga ajratiladi.

Yer osti boyliklarini huquqiy holatini belgilovchi umumiy ko`rsatkich O`zbekiston Respublikasi OliyMajlisi faoliyatiga to`g`ridan-to`g`ri bog`liqdir. Konstitutsiyamizning 78 moddasi va 1994 yil 22 sentyabr O`zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonuniga (4-modda) binoan davlat hokimiyatining oliy vakillik organi:

- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlarni ishlab chiqadi, qaror qabul qiladi va ularni ijrosini nazorat qilishni tashkillashtiradi;
- unga hisobot beruvchi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi orqali yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning kompleks nazoratni tartibga solib turadi;
- davlatni yer osti mineral xom-ashyo dasturidan foydalanish dasturlarini qabul qiladi, bu borada ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini tasdiqlaydi;
- mineral resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarni (taksalarni) joriy qiladi va ularga oid imtiyozlarni belgilaydi;
- qonunchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha xarajatlarini qabul qiladi;
- milliy yer osti boyliklaridan foydalanish yoki ularni muhofaza qilish bo'yicha bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlaydi) hamda denonsatsiya (barvaqt to'xtadi) qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq Prezident yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasidagi ichki va xalqaro siyosatni belgilaydi. Ushbu sohadagi ishlar fuqarolarning ekologik xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligining zaruriy chora-tadbirlarini ko'radi. Yer osti mineral xom-ashyodan foydalanish va muhofazasiga doir qonunlarni imzolaydi hamda farmon, farmoyish va qarorlar qabul qiladi. Ekologik talofot ko'rgan tog' kon sanoatining hududlar bo'yicha favqulodda holat joriy etish va shunga o'xshash boshqaruv masalalarini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlatimizning ijro etuvchi organi sifatida konstitutsiyaning 93-moddasi va 1993 yil 6 mayda qabul qilingan o'zi to'g'risidagi qonunga muvofiq:

- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlar ijrosini ta`minlaydi;
- yer osti boyliklari kadastrini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- qonunchilik va u bilan bog`liq bo`lgan inqiroziy bartaraf etadi va yer ostida bo`layotgan ta`biy ofatlarni (endogen jarayonlar) kelib chiqish sababini aniqlaydi va ularni ekologik xavfsizlik darajasini ta`minlashning chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- yer osti boyliklaridan samarali foydalanish ularni muhofaza qilish va qayta tiklash (rekul'tivatsiyalash) bo`yicha targ`ibot, o`quv ta`lim va malaka oshirishni yo`lga qo`yadi;
- mineral xom-ashyolardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi va shunga o`xshash o`z vakolati doirasida faoliyat ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100- moddasi va 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi qonunga muvofiq ular shahar, tuman va viloyat ahamiyatiga molik bo`lgan:

- yer osti va usti mineral xom-ashyo resurslardan foydalanish va ularni ekologik xavfsizlik darajasini ta`minlash bo`yicha hududiy boshqaruv, dasturlarni ishlab chiqaradilar va amalga oshiradilar;
- yer osti boyliklari kadastrini va monitoringini amalga oshiradilar hamda ularga binoan mahalliy to`lovlarni undirib oladilar;
- konchilik sanoatidan chiqqan chiqitlarni tashlash, ko`mish uchun ruxsatnoma beradilar va ularni bekor qiladilar;
- mahalliy hokimiyatga ega bo`lgan mahalliy ahamiyatga ega bo`lgan qurilish, tog` kon sanoati korxonalarining ekologik faoliyatini nazorat qiladilar va asosli ravishda uni to`xtatib qo`yadilar hamda konstitutsiya va boshqa qonunlarga zid bo`lmagan huquqiy-ekologik tadbirlarni olib boradilar.

Davlatning yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi maxsus vakolat tizimidagi kompleks boshqaruvni Geologiya va mineral resurslar davlat qo`mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Sanoatda va

konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, favqulodda vaziyatlar bo'yicha vazirliklar olib beradilar. Ushbu davlat organlari qaysi bir mulkchilik shakllari kompleks ravishda yer osti boyliklaridan foydalanilayotganidan qat'iy nazar, ular faoliyatini inson salomatligi va atrof-muhit holatiga bezarar olib borayotganini nazorat qilib boradilar.

Umumtarqalgan foydali qazilmalarni muhofaza qilish va ulardan oqilon foydalanish sohasidagi davlat nazorati Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan amalga oshiriladi. 2007 yilda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari tomonidan 14 ta kar'yerni tekshirish natijalariga ko'ra umumtarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish qoidalarini buzganliklari uchun jami 1346,8 ming so'mlik jarima solingan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2007 yil 7 iyundagi PQ-649-son «Yer qari uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun litsenziyalarni berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori chiqqanidan keyin foydali qazilmalarni o'zboshimchalik bilan qazib olganlik holatlar yuzasidan ko'riladigan choralar kuchaytirildi.

### **Konchilik munosabatlarida davlat nazorati**

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri — davlatning bosh islohotchiligidir. Davlat islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning hozirgi zamon talablariga mos tushadigan siyosiy yo'lini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi kerak. Chunki «ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor — davlat tomonidan tartibga solib turiladigan bozordir».

Konchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish vazifalari Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning II bobiga binoan quyidagilardan iborat:

- Yer osti boyliklarini geologik jihatdan o'rganish va muhofaza qilish, mineral resurslardan oqilon, kompleks foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bexatar yuritishga doir me'yorlar va qoidalarini belgilash;



- mineral xom ashyo bazasini rivojlantirishni ta'minlash;
- foydali qazilmalarning asosiy turlarini qazib olishning hozirgi paytdagi va istiqbolga mo'ljallangan hajmlarini belgilash;
- Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun to'lovlarni belgilash va undirish;
- Yer osti boyliklari kadastrini o'tkazish, monitoringini olib borish;
- Yer osti boyliklarini muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini o'rnatish va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat organlarining o'zi to'g'risidagi qonunlar yoki nizomlariga muvofiq konchilik munosabatlarini tartibga solib turadi. Ularning vakolatlari mohiyati va mazmuniga ko'ra 2 katta guruhga: umumiy va maxsus boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga ajratiladi.

Umumiy boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari kiradi. Maxsus davlat boshqaruv organlari o'z navbatida — kompleks, sohalar va funksional boshqaruv organlariga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq **Prezident** — Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasidagi ichki va xalqaro siyosatni belgilaydi; ushbu sohadagi ishlar fuqarolarning ekologik xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga kafillik beradi; Yer osti mineral xom ashyodan foydalanish va uning muhofazasiga doir qonunlarni imzolaydi hamda farmon, farmoyish va qarorlar qabul qiladi; ekologik-talafot ko'rgan tog'-kon sanoatining hududlari bo'yicha favqulodda holat joriy etadi va shu kabi boshqaruv masalalarni hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasi** davlatimizning ijro etuvchi organi sifatida Konstitutsiyamiz, Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga ko'ra, bir qator muhim vazifalarni bajaradi:

— Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlar ijrosini ta'minlaydi;

— Yer osti boyliklari kadastrini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

— konchilik va u bilan bog'liq bo'lgan inqirozli holatni bartaraf etadi va Yer ostida bo'layotgan tabiiy ofatlarning (endogen jarayonlarni) kelib chiqish sababini aniqlaydi va ularni ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlashning chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

— Yer osti boyliklaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash (rekultivatsiyalash) bo'yicha targ'ibot, o'quv, ta'lim va malaka oshirishni yo'lga qo'yadi;

— mineral xom ashyolardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi va shunga o'xshash o'z vakolati doirasida faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 13-yanvardagi «Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlarini ishlab chiqish uchun byerish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida «Zarafshon — Nyumont», «WMC Zarmitan LTD», «Nyumont — O'zbekiston LTD — Mitsun» kabi qo'shma korxonalar sovet davridan qolgan konchilik chiqitlarini qayta boyitish orqali turli qimmatbaho rangli metallarni olmoqdalar. Chet el firmalarining 15 yillik muddatda va qulay huquqiy negizda ishlashi tog'-kon sanoatiga yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnologiyalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida 100-moddasi, Mahalliy davlat hokimiyati va Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 9-moddasiga muvofiq ***mahalliy davlat boshqaruv organlari*** shahar, tuman va viloyat ahamiyatiga molik bo'lgan konchilik munosabatlarini tartibga solish vakolatlariga ega bo'lib, ular:

— Yer osti va usti mineral xom ashyo resurslaridan foydalanish va ularni ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlash bo'yicha hududiy boshqaruv dasturlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;

— Yer osti boyliklari kadastrini va monitoringini amalga oshiradilar hamda ularga binoan mahalliy to'lovlarni undirib oladilar;

— konchilik sanoatidan chiqqan chiqitlarni tashlash, ko‘mish uchun ruxsatnomalar beradilar va ularni bekor qiladilar;

— mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan qurilish, tog‘-kon sanoati korxonalarining ekologik faoliyatini nazorat qiladilar va asosli ravishda uni to‘xtatib qo‘yadilar hamda Konstitutsiyaga va boshqa qonunlarga zid bo‘lmagan huquqiy-ekologik tadbirlarni olib boradilar.

Davlatning Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi maxsus vakolattizimidagi **kompleks boshqaruvni** Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Sanoatda va konchilikda ishlarni bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, Favqulodda hodisalar bo‘yicha vazirlik olib boradi. Ushbu davlat organlari mulk shaklidan qat’iy nazar Yer osti boyliklaridan foydalanilayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatlarini inson salomatligi va atrof-muhit holatiga bezarar olib borayotganlarini boshqarib va nazorat qilib turadilar.

Bizlarga ma’lumki, Yer osti boyliklaridan bir qator xalq xo‘jaligi sohalarida ham foydalanadilar. Shuning uchun har bir sohada o‘zining boshqaruv va nazorat bo‘linmalari mavjud bo‘lib, davlatning maxsus boshqaruv organlariga yordam berish uchun ular maxsus ko‘rinishdagi sohaviy boshqaruv vakolatiga egadirlar. Ularga O‘zsanoatqurilish, Qishloq va suv xo‘jaligi, Mudofaa va Avtomobil yo‘llari vazirliklari kabi davlat organlari kiradi.

Davlat boshqaruv organlarining maxsus boshqaruv tizimida *funksional* vakolatga ega bo‘lgan davlat idoralarining Yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishdagi ahamiyati kattadir. Masalan, alohida muhofaza qilishga molik tog‘ sanoatiga qarashli ob’yektlarni huquqni muhofaza qilish organlarining harbiylashtirilgan idoralari tomonidan qo‘riqlanishi, ulardagi xo‘jalik ishlarining bexatar olib borilishiga va oqibatda, ekologik inqirozli holatning oldini olishga olib kelmoqda. *Davlat standartlashtirish va meteyereologiya qo‘mitasi* o‘z funksional vazifasiga ko‘ra mineral xom ashyolarni qidiruv va qazib olishlarning xalqaro ekologik standartlarga mos kelishini tartibga

solib turadi. *Soliq inspeksiyasi* esa o'z vakolati doirasida Yer osti va usti mineral boyliklaridan foydalanganlik yoki bu foydalanish davomida atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan soliqlar va to'lovlarni o'z muddatida undirib olish orqali tabiatga yetkazilgan zararni moliyaviy qoplashga imkon beradi. *Huquqni muhofaza qilish davlat idoralarining* funksional boshqaruv vazifalari Yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish qonunchiligi buzilishining profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda konchilik qonun hujjatlarini buzganlarga nisbatan jazo choralarini qo'llashdan iboratdir.

### **3.2. Yer osti boyliklari va ularni muhofaza qilish huquqiy holati tushunchasi.**

Yer osti boyliklari nisbiy tushuncha bo'lib, me'yoriy xujjatlarda u nafaqat yer ostidagi, balki yer ustidagi mineral boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishdagi munosabatlarni ham inobatga oladi. Mineral – yer yuzida va qarida fizik va kimyoviy jarayonlar natijasida vujudga kelgan, kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari jihatdan deyarli bir xil bo'lgan jismdir. Shunday qilib mineralning tuproq yoki tuproq hosil qiluvchi ona jins (less – sog' tuproq) dan farqi uning kimyoviy tarkibi (kimyoviy elementlar soni va uning o'zaro birikmasi) va fizik xususiyatlari (suv va temperatura rejimi, katta-kichikligi, sinishi, qattiqligi) bilan farq qiladi. Masalan, toshko'mir 97% gacha va qolgani esa uchuvchi moddalardan tarkib topgan. Issiqlik berishi 7200-8750 kkal/kg. Ohaktosh – karbonli birikma, fizik xususiyatlaridan suvda eruvchanligi va uning natijasida katta miqdorda energiya ajratib berishidir.

Ayrim mutaxassislar yer osti boyliklarini yer osti qazilmalari deb ham yuritadilar. Lekin bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki planetamizda uchraydigan 3 ming turdan ortiq minerallarning atigi 200-300 xil turi inson faoliyatida qazilma boylik sifatida ishlatiladi. Undan tashqari, minerallar nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va madaniy-sog'lomlashtirish vazifa (funktsiya)larni ham bajaradi.

Yer osti boyliklarining ekologik funksiyasi – yer ustining tabiiy fundamenti, tuproq va ularni hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi. Mineralning ximik, fizik va biologik yemirilishi natijasida ona jins (lesslar) hosil bo`ladi va ularda tirik organizmlarning aktiv faoliyati esa tuproq hosil bo`lishiga olib keladi. Bunday tabiiy jarayon yer osti minerallarini ekologik tizimlarda ishtirok etishini ta`minlab beradi.

Yer osti boyliklarini iqtisodiy funksiyasi – insonlarning kundalik hayotidagi (energetika, qurilish, sanoat va h.k. jabhalarida) moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun mineral resurslaridan foydalanishidir.

Yer osti boyliklarining madaniy-sog'lomlashtirish funksiyasi – yer qa`ri va minerallarning inson organizmi uchun foydali tomonlarini inobatga olib, dam olishi va salomatligini tiklashda foydalanishidir.

Yer osti boyliklarining o`ziga xos tomonlaridan biri ularni tugallanadigan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kirishidir. Agarda o`simlik va hayvonot dunyosining qayta tiklanish davri bir necha daqiqadan bir necha o`n yillarni, tuproq (yer) yuzlab yillarni, suv ob`ekti esa 10 yildan 5000 yillarni o`z ichiga olsa minerallarning tiklanish davri yuz minglab yoki millionlab yillarni talab etadi. Insoniyat tarixida bu jarayon uzoq muddatli davr bo`lgani uchun ham ularni tiklash imkoniyati yo`q yoki tiklanmaydigan tabiiy resurslar toifasiga kiritamiz.

O`zbekistonda yer osti boyliklaridan 100 dan ortig`i – mineral resurslar sifatida ishlatilib kelinmoqda. Uning moliyaviy potentsiali 3,3 trln., yillik qazib olishning iqtisodiy ko`rsatkichi 5,5 mlrd. AQSH dollariga tengdir. Shuning uchun ham mineral xom-ashyo bizning asosiy boyligimiz hisoblanadi. Ulardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish haqida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o`zining “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari” degan asarida O`zbekiston sobiq ittifoqning mineral xom-ashyo bazasi bo`lgani va undan o`ta shafqatsizlarcha – “tagi yo`q bochka” kabi foydalanganliklarini alohida ta`kidlab

o`tilgan. Natijada ular ekologik tizimlarni buzishga, “oy landshafti” ga o`xshash chiqindi moddalar tepaliklarini paydo qilishga, radioaktiv xavfli tegralarni vujudga keltirishga sabab bo`lganini aytib o`tganlar. Endilikda bunday qayta tiklanmaydigan zahiralardan qat`iy mezon asosida foydalanish, ularni qazib olish va qaytia ishlash chog`ida isrofgarchilikka yo`l qo`ymaslik kerak. Buning uchun eskirgan qayta ishlash va qazib olish uskunalari yangi texnologiyalar bilan almashtirish rekonstruktsiya qilish zarur. Tog`-kon sanoatining chiqindilarini o`zlashtirishni yanada kengaytirish hamda buzilgan yerlarni qayta yaroqli holga keltirish talablarni amaliy qo`llash lozim.

Yuqorida keltirilgan va davlatimizning yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishdagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun avvalambor ushbu munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy-me`yoriy zamin yaratmoq kerak. Chunki yosh va mustaqil respublikamiz endilikda o`z mineral boyliklariga o`zi egalik qilish huquqiga ega bo`ldi. 20 yillik mustaqillik davrda O`zbekiston yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid bir qator qonun va qonun osti me`yoriy hujjatlar qabul qildi. Lekin bu bilan jamiyatdagi ushbu munosabatlarni huquqiy zamini yaratildi deb bo`lmaydi. Mustaqil respublikamiz bozor munosabatlariga o`tar ekan tabiiy boyliklardan foydalanishni va ularni muhofaza qilishni huquqiy boshqarish yoki tartibga solish o`zgarib va takomillashib boraveradi. Eng asosiysi yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir huquqiy me`yorlarni amaliyotda qo`llash mexanizmini to`liq ishlab chiqishdir. Aks holda qonunlarimiz “tishsiz” bo`lib qolishi va jamiyatda huquqiy negizli holati vujudga kelishi mumkin.

*Yer osti boyliklarining huquqiy holati* deb yer osti boyliklarini muhofaza qilish, mineral xom-ashyodan o`ta samaradorlik bilan foydalanish va uning natijasida buzilgan tabiiy komplekslarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarni ma`lum bir davrdagi huquqiy tartibga solish holatiga aytamiz.

O`zbekiston Respublikasida yer osti boyliklarining huquqiy holati Konstitutsiyada belgilangan imperativ normalar va uning asosida ishlab chiqilgan

umumlashtirilgan (tabiatni muhofaza qilish to'g'risida, Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida...) kodifikatsiyalangan (Yer Kodeksi, Jinoyat Kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks, Fuqarolik Kodeksi...) va ixtisoslashtirilgan (Yer osti boyliklari to'g'risida, Kontsessiyalar to'g'risida...) qonunlar va qonun osti normativ hujjatlar asosida tartibga solinadi. Ushbu qonun aktlar orqali tartibga solinadigan ob'yekt bo'lib, yer osti va suv tagidagi mineral boyliklardir. Ulardan huquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilish ushbu huquq tarmog'ining predmetidir. Yer osti boyliklaridan huquqiy tartibga solish mazmuni ruxsat oluvchi, oldini oluvchi va ta'qiqlovchi huquqiy me'yorlar orqali ularni muhofaza qilish va o'ta samaradorlik bilan foydalanishdir.

### **3.3. Mineral resurslardan foydalanish huquqi va ularni muhofazalashning ekologik-huquqiy talablari.**

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning huquqiy ekologik talablari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-54-55 moddalarida imperativ shaklda o'z aksini topgan. Ularga binoan har bir fuqaro yoki mulkdor atrof tabiiy muhitga (jumladan yer osti boyliklariga) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari va ulardan oqilona foydalanishlari zarurdir. Ushbu zaruriy shartlar kengaytirilgan tarzda Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunda berilgan bo'lib, unga muvofiq (18-modda) yer osti boyliklaridan yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi ekologik talablar asosida foydalanadilar: qazilma boyliklarini qazib olishda mineral xom-ashyodan kompleks va oqilona foydalanishni ta'minlasalar; atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklari ifloslanishining oldini olsalar; foydalanilgan yer uchastkalarini rekul'tivatsiya (qayta tiklash, ya'ngi buzilgan yerlarni qayta madaniylashtirish) qilsalar; qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishga erishiladigan darajadagina foydalansalar. Umumlashtirilgan huquqiy –ekologik talablar ixtisoslashtirilgan holda 1994 yil 23 sentyabr va 1995 yil 30 avgustda qabul qilingan Yer osti boyliklari va Kontsessiyalar to'g'risidagi qonunlarda o'z aksini topgan va ularda foydalanuvchilarga nisbatan quyidagilardan iborat:

- tog'-kon sanoatidagi ishlarni (qidiruv, kovlash va rekul'tivatsiya qilish) yer qa`ridan foydalanish loyihasiga muvofiq olib borish;

- yer qa`rini to`la-to`kis o`rganish, yer osti boyliklaridan oqilona va kompleks foydalanish, ularni muhofaza qilish;

- konlarning foydali qazilmalar mo`l uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xom-ashyo qazib olish va uni qayta ishlashda foydali qazilmalarning normativdagidan ortiq nobudgarchiligiga yo`l qo`ymaslik;

- yer osti boyliklaridan foydalanish bilan ishlarning zararli ta`siridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

- yer osti boyliklaridan foydalanish chog`ida buzilgan yer uchastkalarini ulardan keyinchalik foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;

- ichimlik suvi sifatida foydalaniladigan suv to`plash maydonlarida va yer osti suvlari to`planadigan maydonlarda sanoat va maishiy chiqindilar yig`ilib qolishining oldini olish;

- alohida ilmiy va madaniy qimmatga molik boyliklari uchastkalarini davlat qo`riqxonalari va tabiat yoki madaniyat yodgorliklariga mo`ljallab ajratib olish;

- chet ellik investorlar yer osti boyliklaridan foydalanish davomida atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlarini bexatar olib borishlari hamda yer usti va osti uchastkalarini bosqichma-bosqich qaytarib berishlari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan borshqa chora-tadbirlarni olib borish.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi huquqiy-ekologik talablar bevosita yoki bilvosita Chet ellik investitsiyalari, Mulkchilik Suv va suvdan foydalanish, O`simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risidagi qonunlar va Yer Kodeksi, Soliq Kodeksi hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 13 yanvardagi 20 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlari ishlab chiqish uchun berish tartibi to`g`risida", "Qazib olingan va qazib olish jarayonida



yo`qotilgan foydali qazilmalarning zahiralari yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar hisobidan o`chirish tartibi to`g`risida”, “Foydali qazilmalarning ishlab chiqish paytida yer osti boyliklarini muhofaza qilishning yagona qoidalari”ga bag`ishlangan qarorlarda aks ettirilgan. Huquqshunos olim S.Hamroyevning fikriga ko`ra yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish talablarini kengaytirilib, yagona “Yer osti boyliklari to`g`risidagi Kodeks”da o`z aksini topishi kerak degan taklif bilan chiqmoqda.

### **3.4.Yer osti boyliklarini muhofaza qilish, huquqbuzarlikni bartaraf etish choralari**

Yer osti boyliklaridan foydalanish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (respublika ahamiyatiga molik ob`yektlar uchun) litsenziya (ruhsatnoma)si asosida yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Ularning foydalanish muddatlari Yer osti boyliklari to`g`risidagi qonunning 12-moddasiga muvofiq cheklanmagan va cheklangan bo`lishi mumkin. Agarda foydalanish muddati oldindan belgilanib qo`yilmagan bo`lsa, u muddati cheklanmagan hisoblanadi. Aksincha agarda yer osti boyliklaridan foydalanish litsenziyada belgilab qo`yilsa cheklangan bo`ladi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish muddatlari Yer osti boyliklari to`g`risidagi qonunning 22-moddasiga muvofiq muddatli va muddatsiz bo`lishi mumkin. Agarda foydalanish muddati oldindan belgilanib qo`yilmagan bo`lsa, u muddati cheklanmagan hisoblanadi. Aksincha, agarda Yer osti boyliklaridan foydalanish litsenziyada belgilab qo`yilgan bo`lsa — cheklangan bo`ladi. Masalan, chet el yuridik va jismoniy shaxslarga Konsessiyalar to`g`risidagi qonunning 3, 15, 17-moddalariga binoan tanlov va auksion o`tkazish orqali 15 yil muddatga Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Yer osti boyliklari foydalanish uchun beriladi. Zaruriyatga qarab bu muddat muayyan davrga, lekin 15 yildan oshmagan holda, uzaytirilishi mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanish asosiy maqsad va vazifalariga qarab 6 turga bo`linadi:

- 1) geologik jihatdan o`rganish;
- 2) foydali qazilmalarni qazib olish;
- 3) foydali qazilmalar bilan bog`liq bo`lgan foydali qazilmalar bilan bog`liq bo`lgan yer osti inshootlarini qurish hamda ulardan foydalanish;
- 4) nodir tosh xom-ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiya bop materiallarni to`plash;
- 5) davlatning o`zga ehtiyojlarini va jamoat ehtiyojlarini ta`minlash;
- 6) alohida muhofaza etiladigan geologik ob`yektlarni barpo etish.

*Geologik o`rganish uchun berib qo`yish* Qonunning 25-moddasida belgilangan tartibda tasdiqlangan Yer qa`rini geologik o`rganish loyiha — sxema hujjatlariga binoan amalga oshiriladi. Yer qa`rini geologik jihatdan o`rganishga doir ekologik ekspertiza talab qilmaydigan ishlar ro`yxati Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yer qa`ri uchastkalaridan foydalanish huquqi maxsus litsenziyalar asosida amalga oshiriladi. Uning uchun Yer osti mineral boyliklardan foydalanish maqsadi, kon joylashgan maydon, texnogen hosilalardan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan korxonalar loyihalari, qazib olish bilan bog`liq bo`lmagan inshootlarni qurish va ulardan foydalanish, zararli moddalar, radioaktiv chiqindilarni va ishlab chiqarish chiqitlarini joylashtirish huquqlari bo`lishi lozim.

Yuridik va jismoniy shaxslarga Yer osti boyliklaridan foydalanishning bir yo`la bir necha turi uchun litsenziyalar berilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan litsenziya Yer kodeksining 17-moddasiga muvofiq Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar uchun Yer uchastkasini ajratishga asos bo`la oladi. Kon ajratmalari Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi tomonidan beriladi.

*Foydali qazilma konlarini tajriba-sanoat yo`sinida ishlatish* (neft va gaz konlari bundan mustasno), Yer osti chuchuk suvlarini chiqarib olish, nodir tosh

xom - ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa kolleksiyabop geologik materiallarni to'plash uchun litsenziyaga muvofiq berib qo'yiladigan Yer osti boyliklari uchastkalariga kon ajratmasi talab qilinmaydi.

*Geologiya va qidiruv ishlari* moliyaviy ta'minlagan yuridik va jismoniy shaxslar qidirib topilgan konni ishlatish uchun litsenziyalar olishda mutlaq huquqqa egadirlar.

*Xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun* foydalanishga Yer osti boyliklarini berib qo'yish Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 31-moddasi bilan alohida belgilab qo'yilgan. Unga binoan mahalliy xo'jalik ahamiyati uchun zarur mineral xom-ashyo va Yer osti suvlarini qazib olish, Yer osti inshootlarini qurish maqsadida Vazirlar Mahkamasining maxsus litsenziyasisiz, lekin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirish mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanish uchun tayyorlangan loyihalar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ekspertizasidan o'tishi lozim.

Aholi punktlarida, shahar atrofidagi yashil zonalarda, sanoat, transport, aloqa ob'yektlari, Yer osti mineral suvlarini chiqarib olish zonalarida va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar doirasida Yer qa'rining ayrim uchastkalaridan foydalanish cheklab yoki taqiqlab qo'yilishi mumkin.

Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 32—33-moddalariga muvofiq bir qator huquqlar va majburiyatlarga egadirlar.

Yer osti boyliklaridan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va tugatish Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 34-moddasida ko'rsatilgan hollarda va Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda amalga oshiriladi.

Geologik o'rganish uchun berib qo'yish belgilangan tartibda tasdiqlangan yer qa'rini geologik o'rganish loyihasiga asosan beriladi. Ushbu ishlarni boshlash uchun bunday faoliyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish va yer uchastkalarini egallashga ruxsat olish kerak bo'ladi. Chet el yuridik shaxslarga, qo'shma

korxonalarga geologik o`rganish uchun yer osti boyliklari kontsessiya shartnomasi asosida berilishi qonunda nazarda tutilgan.

Yuridik va jismoniy shaxslarga yer osti boyliklaridan foydalanishning bir yo`la bir necha turi uchun litsenziyalar berilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan litsenziya Yer Kodeksining 17-moddasiga muvofiq yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarga yer uchastkasini ajratishga asos bo`la oladi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish uchun tayyorlangan loyihalar Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasining ekspertizasidan o`tishi lozim. Davlat ekspertisasi talablari 2000 yilda qabul qilingan ekologik ekspertiza to`g`risidagi qonunga muvofiq belgilanadi.

## XULOSA

O`zbekiston Respublikasi xalqi ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish yo`lidan bormoqda. Bozor munosabatlarining ijtimoiyligi xususiyati esa insonni, shaxsni har jihatdan munosib sharoitlarda yashashga haqli ekanligini bildiradi. Ya`ni inson faqatgina iqtisodiy jihatdangina emas, balki ekologik jihatdan ham qulay sharoitlarda yashashga haqlidir.

Ayniqsa, bu masala O`zbekiston Respublikasi uchun o`ta dolzarb hisoblanadi. Chunki “*Markaziy Osiyo mintaqasida* (shu jumladan O`zbekiston Respublikasida), *ekologik falokatning g`oyat xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan ochiq aytish mumkin*” (Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: “O`zbekiston”, 1997). Shu nuqtai nazardan qaraganda O`zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o`tish muammolarini gapirish bilan birga, hozirgi murakkab vaziyatda tabiatdan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlariga va tabiatni muhofaza qilishga ham jiddiy e`tibor berishi lozim bo`ladi. Masalaning bunday qo`yilishi O`zbekiston Respublikasining ichki va o`ziga xos milliy ehtiyojlarini aks ettirib qolmasdan, balki xo`jalik amaliyotlarida, xalqaro andozalarga o`tib borayotganligimizning ob`yektiv zaruriyatlaridan ham kelib chiqadi. Hozirgi kunda ekologik iqtisodiy muammolarni o`rganish xo`jalik yurituvchi sub`yektlarning barcha turlari va ko`rinishlarini samarali faoliyat ko`rsatishini ta`minlabgina qolmasdan insonni ijobiy sharoitlarda yashashini zarurligini va kerak bo`lsashartligini ham aniqlaydi.

Men O`zbekiston Respublikasida mineral resurslardan foydalanish muammolari mavzusida bitiruv malakaviy ish yozish jarayonida 20 ortiq adabiyotlar, entsiklopediyalar, milliy ma`ruzalar va internet ma`lumotlaridan foydalandim

Respublikamizda mineral resurslardan foydalanish muammolarini o`rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O`zbekistonda mineral xom-ashyoni qazib olish va qayta ishlash yetakchi o`rinlardan birini egallamoqda va o`z navbatida iqtisodiyotni rivojlantirishga ijobiy ta`sir etmoqda.
2. Mineral resurslar xalq xo`jaligida ishlatilishiga qarab: yoqilg`i-energetika resurslari, metall resurslari (qora, rangli va asl metallar), nometall foydali qazilmalar (tog` kimyosi xom-ashyosi) va qurilish xom-ashyolariga bo`linadi.
3. Tabiiy va mineral xom-ashyo zahiralari yirik konlarda to`plangan, ularni qazib olingan joyning o`zida yoq majmualari qayta ishlash imkoniyati mavjud; aksariyat foydali qazilmalar tarkibida foydali komponentlar yuqori va ular katta miqdorda yo`ldosh elementlarga ega;
4. Konlarning ko`pchiligidan ochiq usulda, nisbatan oddiy texnologiyalar asosida foydalaniladi. Mazkur holat jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni ta`minlaydi; ko`pgina foydali qazilma konlari aholi zich yashaydigan, yaxshi o`zlashtirilgan hududlarda joylashgan. Ular transport yo`llariga va hududlar o`rtasida resurslarni tashish vositalariga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega;
5. O`zbekistonda mineral resurslardan samarali va oqilona foydalanish maqsadida davlat nazorati izchil shakllantirilgan hamda mineral resurslar huquqiy-normativ hujjatlar orqali muhofaza etiladi.

Xulosa qilganda, men mintaqamizning mineral resurslari hamda ulardan foydalanish muammolari mavzusini o`rganish jarayonida tegishli bilim va ko`nikmalarga ega bo`ldim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **I. Huquqiy – me’yoriy hujjatlar:**

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir (Xalq so’zi. 29 yanvar 2005 y.).
2. Karimov I. A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O’zbekiston”, 1997.
3. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: ”O’zbekiston”, 2011. – 52 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Qonunlari: «Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida» (1992 y.), «Yer osti boyliklari to’g’risida» (2003 y.), «Yer kodeksi» (1998 y.).
5. O’zbekiston respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to’g’risida milliy ma’ruza. 2008yil.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo’llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to’g’risida. 2008 yil 28 noyabr, PF – 4058-son.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.

### **II. Kitoblar va monografiyalar:**

8. Vahabov A, Tadjibaeva D, Xajibakiev Sh. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. O’quv qo’llanma. T. 2014, 312, 450 b
9. Asanov G, Nabixonov, Safarov I. O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jug’rofiyasi, T.: O’qituvchi, 2006 yil
10. Yo’ldoshev Z.Y. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rejalashtirish. T.: O’qituvchi, 2002 yil
11. Otaboyev Sh. Nabiyev M. Inson va biosfera. T., “O’qituvchi”1995.

12. Tursunov X.T. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. “Saodat RIA”,
13. Qodirov E.B. va boshqalar. Tabiiy muhitni muhofazalashning ekologik asoslari. T., “O‘zbekiston”, 1999.
14. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., “Yangi asr avlodi”, 2005.
2. Xolmurodov J. Ekologiya va qonun. T., “Adolat”. 2000.

### **III. Jurnal va ilmiy to‘plamdagi maqolalar:**



16. Нуриддинова А.Г. Мотивация инновационной активности персонала промышленных предприятий// Общественные науки в Узбекистане.2009.№1. стр 35-42.
17. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozining oqibatlari, asosiy saboqlari va milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’siri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. – T.: ToshDShI, 2011. – 384b.
18. Xolmatov N.B. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy sanoat raqobatbardoshligi o‘zgarishining ayrim yo‘nalishlari. //Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining asosiy saboqlari: Milliy iqtisodiyotlar rivojlanishiga ta’siri va oqibatlari. 90-93 betlar.

### **IV. Internet resurslar:**

19. [www.ung.uz](http://www.ung.uz). O‘zbekneftgaz Milliy Holding Kompaniyasi
20. [www.uzbekenergo.uz](http://www.uzbekenergo.uz) O‘zbekenergo Davlat Aksiyadorlik Kompaniyasi
21. [www.mineral.ru](http://www.mineral.ru) Mineral ma’lumotlar va analiz markazi
22. [www.ngmk.uz](http://www.ngmk.uz) Navoiy kon metallurgiya kombinati
23. [www.vseonefti.ru](http://www.vseonefti.ru) Neftga oid ma’lumotlar beriladigan rasmiy sayt
24. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## Ilovalar



O'zbekiston Respublikasining foydali  
qazilma boyliklari zaxiralarining Davlat  
balansi holati (01.01.2013 yilga)

<b>№</b>	<b>Foydali qazilmalar</b>	<b>Miqdori</b>
<b>1</b>	<b>Asl metallar</b>	<b>89</b>
<b>2</b>	<b>Radioaktiv metallar</b>	<b>33</b>
<b>3</b>	<b>Rangli va noyob metallar</b>	<b>11</b>
<b>4</b>	<b>Qora metallar</b>	<b>3</b>
<b>5</b>	<b>Ko'mir</b>	<b>3</b>
<b>6</b>	<b>Tog'-kon xom ashyosi</b>	<b>55</b>
<b>7</b>	<b>Tog'-kimyo xom ashyosi</b>	<b>26</b>
<b>8</b>	<b>Rangli tosh xom ashyosi</b>	<b>30</b>
<b>9</b>	<b>Qurilish materiallari</b>	<b>615</b>
<b>10</b>	<b>Yer osti suvlari</b>	<b>617</b>
<b>11</b>	<b>Uglevodorodlar</b>	<b>235</b>
	<b>Jami:</b>	<b>1717</b>

